

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVESITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**TA’LIM TIZIMIDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONLARINI TASHKIL
ETISHNING HUQUQIY-ME’YORIY ASOSLARI**

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Mazkur o'quv uslubiy majmua Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassalarining maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, filologiya va psixologiya ta'lim yo'nalishlarini bitirgan mutaxassislar **defektologiya(logopediya)** kasbiy qayta tayyorlash 5 oylik kursining Namunaviy o'quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

O'quv uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Kengashining 2024 yil 27-dekabrdagi 5– sonli yig'lish qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi: **S.F.Rajabova** – BuxDU huzuridagi PKQT va UMOMM o'qituvchisi, p.f.n.

Taqrizchi: **I.X.Shoyev** – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi.

**O'quv -uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024 yil 27-dekabrdagi 5–sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR.....	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI.....	11
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MA’LUMOTLAR...	12
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI....	38
V. KEYSLAR BANKI.....	40
VII. GLOSSARIY	46
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	58

ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, 2019 yil 16 dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 2018 yil 30 sentyabrda “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son, 2020 yil 27 fevralda “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli Qarorilari, 2020 yil 30 sentyabrda O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “O‘qituvchi va murabbiylar–yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” nomli nutqi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 mayda “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 391-son, Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u maktabgacha ta’lim tizimini muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni, pedagogning kasbiy professionalligini oshirishdan iborat. amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

XXI asr boshlarida kechayotgan global ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlar dunyoning g‘oyaviy-mafkuraviy qiyofasini o‘zgartirib, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishni taqozo etmoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘inidir. Mazkur sohani takomillashtirish maqsadida qabul qilingan dasturda maktabgacha ta’lim sohasi uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini sifatida, bu jarayonda maktabgacha ta’lim muassasalarining bolalar huquqiy savodxonligini shakllantirishdagi o‘rni hamda respublikada ta’lim- tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi ekanligi ta’kidlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2707-sonli Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, bola huquqlariga oid me‘yoriy- huquqiy hujjatlar asosida ta’lim sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Modulning o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrda «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida»gi PQ-3261-sonli qaroridagi zamonaviy talablar asosida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini qayta tayyorlash jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda tarbiyachilarning kasbiy kompetentligi bilan bir qatorda huquqiy savodxonligini ham muntazam oshirib borishni nazarda tutadi. SHu bilan bir qatorda maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlarning asosi bo'lgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarning mazmun- mohiyatini ochib beradi.

Modulning maqsadi va vazifalari.

Modulning maqsadi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Qonunlar va qonunosti hujjatlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizim faoliyatini tubdan yaxshilashga qaratilgan huquqiy- me'yoriy hujjatlar, inson va fuqarolarning, jumladan, bolalarning huquq va erkinliklarini ta'minlab, himoya qiladigan huquqiy hujjatlarining mazmun- mohiyatini tushuntirib berishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyati va unda kafolatlangan huquq va erkinliklar hamda fuqarolarning burchlari bilan tanishtirish;
- "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya", "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonun, "Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bolalarning huquqlarga oid qoidalarining mazmuni bilan tanishtirish;
- maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini tubdan yaxshilashga qaratilgan islohotlar va amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha ma'lumot berishdan iborat.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.

Tinglovchi:

- maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish siyosatning mazmun-mohiyati to'g'risida;
- Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi va undan ko'zlangan maqsadlar haqida;
- huquqiy, g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashtirish sharoitida ta'lim-tarbiya tizimi oldidagi vazifalarini bilishi;
- maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarning mazmun-mohiyatidan o'z faoliyatida foydalana olish;
- maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning huquq va erkinliklarini targ'ib etishda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini zamon talabi nuqtai nazaridan tahlil qilish;
- maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning huquq va erkinliklarini targ'ib qilish bo'yicha belgilangan vazifalarni amaliyotda *qo'llashko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.*
- Respublikada maktabgacha ta'lim tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligiga o'z munosabatini bildirib olish;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida maktabgacha

ta'lim tizimiga taallukdi normalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalana olish ***malakalariga ega bo'lishi lozim.***

- Maktabgacha ta'limda bolalar huquqiy savodxonligini o'ttiritt jarayonida faol ishtirok etish;
- ota-onalar bilan ishlash jarayonida bolalarning huquqiy himoyalari targ'ib qilish;
- ta'lim-tarbiya jarayonlarida yuzaga kelgan vaziyatlarga milliy ma'naviy qadriyatlar nuqtai nazaridan me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tezkor va to'g'ri xulosalar chiqara olish ***kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.***

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar.

Maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim - tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy - me'yoriy asoslari moduli nazariy va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Nazariy mashg'ulotlarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, inson va fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya va maktabgacha ta'lim sohasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini singdirishdan iborat.

Amaliy mashg'ulotlarda O'zbekiston Respublikasidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar tushunchasi va turlari, maktabgacha ta'lim sohasiga oid huquqiy hujjatlar, inson va fuqarolarning huquqlari va erkinliklarining kafolatlari va ta'lim muassasalarida huquqiy tartibotni ta'minlash tushunchalari o'rgatiladi.

Mashg'ulotlarda texnik vositalardan, katta va kichik guruhlarda ishlash, ekspress-so'rovlar, «Har kim har kimga o'rgatadi», «8^{OT}-tahlil», baxs- munozara, Venn diagrammasi, B.B.B. hamda «FSMU» texnologiyalari bilan ishlash va boshqa interaktiv ta'lim usullaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa bloklar bilan bog'liqligi va uzviyligi.

Modul mazmuni o'quv rejadagi «Maktabgacha ta'limni rivojlantirishning konseptual asoslari» moduli bilan uzviy bog'langan holda tarbiyachilarning kasbiy qayta tayyorgarlik darajasini va huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi.

Mazkur modul «Umumkasbiy tayyorgarlik», «Mutaxassislik bo'yicha tayyorgarlik» va «Tanlov fani» bloklaridan avval o'rganiladi. Unda keyin o'rganiladigan bloklarning mazmuni, yo'nalishlari va huquqiy jihatlarini maktabgacha ta'limga tatbiq etish imkoniyatlarini ochib beradi.

Modulning ta'limdagi o'rni.

Tinglovchilarga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarida maktabgacha ta'lim sohasida huquqiy ta'lim-tarbiyani amalga oshirishdek dolzarb muammolar va tizim faoliyatini tubdan yaxshilashga qaratilgan islohotlarning siyosiy hamda huquqiy asoslarini o'rgatish bilan birga ularni amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashdan iborat.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

T/r	Fan mavzulari	Hammasi	Jumladan			Mustaqilta' lim
			Nazariy	Amaliy	Ko' chma mashg' ulot	
1.	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – inson huquq va erkinliklarining kafolati.	2	2			
2.	O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni.	4	2	2		
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari	4	2	2		
4	Davlat ta'lim standartlari. Klassifikator. O'quv rejalar. Fan dasturlari, buyruklari, yo'riqnomalar va boshqa me'yoriy hujjatlarning mazmuni va mohiyati	4	2	2		
5	2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari.	6	2	2		2
6	Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya», «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonun.	4		2		2
7	Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdan himoya qilish. to'g'risidagi qonun.	4		2		2
8	Ta'lim tizimida defektologik xizmatni tashkil etishning huquqiy – me'yoriy asoslari.	2		2		
Jami:		30	10	14		6

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.

1-mavzu: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi–inson huquq va erkinliklarining kafolati.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlat qonunchilik bazasining asosi ekanligi. Qonunlar va qonunosti hujjatlari to'g'risida tushuncha. O'zbekiston Respublikasida qonunlar va qonun osti hujjatlarini qabul qilish vakolatiga ega davlat

organlari. Vakolatli idoralar tomonidan chiqariladigan huquqiy-me'yoriy hujjatlar haqida.

2-mavzu: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari. Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillari. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. Uzluksiz ta'lim tizimi, uning tarkibiy qisimlari va darajasi. Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy prinsiplari

3-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari.

Respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari.

Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini sifatida. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi 528-sonli Qarori (19.07.2017y.), «Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 929-sonli Qarori (21.11.2017y.), «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va uning tizimidagi muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi 991-sonli Qarori (18.12.2017y.) hamda tizimga taalluqli boshqa qonun osti hujjatlari.

4-mavzu: Davlat ta'lim standartlari. Klassifikator. O'quv rejalar. Fan dasturlari, buyruklari, yo'riqnomalar va boshqa me'yoriy hujjatlarning mazmuni va mohiyati.

Davlat ta'lim standartlari. Klassifikator. O'quv rejalar. Fan dasturlari, buyruklari, yo'riqnomalar va boshqa me'yoriy hujjatlarning mazmuni va mohiyati

Sohalarga oid kodlashtirilgan to'plam (Kodeks)lar, mehnat kodeksi. Mehnat qilish, erkin kasb tanlash va dam olish huquqining kafolatlanganligi. Mehnat kodeksi. Maktabgacha ta'lim muassasasida mehnat munosabatlarini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari.

5-mavzu: 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari.

Ta'lim sohasidagi islohotlar. Huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida barcha sohalaridagi kabi maktabgacha ta'lim tizimida ham «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» talablaridan kelib chiqqan holda bolalarga huquqiy ta'lim-tarbiya berish masalalarini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdan himoyalash to'g'risida»gi Qonunlari.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.

1-mavzu: O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. Uzluksiz ta'lim tizimi, uning taribiy qisimlari va darajasi. Ta'lim sohasida davlat siosatining asosiy prinsiplari

2-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari

Respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari.

3-mavzu: O'quv me'yoriy hujjatlarning mazmuni va mohiyati.

Davlat ta'lim standartlari. Klassifikator. O'quv rejalar. Fan dasturlari, buyruqlari, yo'riqnomalar va boshqa me'yoriy hujjatlarning mazmuni va mohiyati

4-mavzu: 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari.

Ta'lim sohasidagi islohotlar. Huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida barcha sohalaridagi kabi maktabgacha ta'lim tizimida ham «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» talablaridan kelib chiqqan holda bolalarga huquqiy ta'lim-tarbiya berish masalalarini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdan himoyalash to'g'risida»gi Qonunlari
ўрганиб, конспектлаштириш

5-mavzu: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya», «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonun.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, «Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya» Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, «Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya» va boshqa qonunlarning mazmun-mohiyatlari. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ««Ilk qadam »» dasturi doirasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish. Oila kodeksi

6-mavzu: Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdagi himoya qilish to'g'risidagi qonun.

Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdagi himoya qilish to'g'risidagi qonunning mohiyati.

7-mavzu: Ta'lim tizimida defektologik xizmatni tashkil etishning huquqiy – me'yoriy asoslar.

Ta'lim tizimida defektologik xizmatni tashkil etishning huquqiy – me'yoriy asoslarining mazmun va mohiyati.

MUSTAQIL TA'LIM MAZMUNI.

Fanga oid o'rganilgan materiallar asosida "O'zbekiston Respublikasida bola huquqlarining kafolatlanganligi". "O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari".

2022-2026 yillarda mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari. Ta'lim sohasidagi islohotlar. Ta'lim tizimida defektologik xizmatni tashkil etishning huquqiy – me'yoriy asoslari mavzularida mustaqil ish bajariladi. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya va boshqa qonunlarning mazmun-mohiyatlari. Maktabgacha ta'lim muassasalarida «Ilk qadam» dasturi doirasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish. Oila kodeksi.

Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotda himoya qilish to'g'risidagi qonunning mohiyati mavzularida mustaqil ish bajariladi.

Ta'lim tizimida defektologik xizmatni tashkil etishning huquqiy – me'yoriy asoslarining mazmun va mohiyati mavzularida mustaqil ish bajariladi.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruza mashg'ulotlar (ma'lumotlarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ta'lim sohasidagi islohotlar bo'yicha o'z fikrlarini bildirish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (maktabgacha ta'lim tizimida huquqiy ta'lim- tarbiyani amalga oshirishning asosli argumentlarini taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2023.
- 2.O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 2020 y. 23 sentyabr.
- 3.O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 2008.
- 4.O'zbekiston Respublikasining «Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar etkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 2016.
- 5.O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 2017.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi. PF-5198-sonli Farmoni.

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3261- sonli qarori. 2017 yil.

9.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 sentyabrdagi «Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3276-sonli Qarori.

10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 sentyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-3305-sonli Qarori.

11.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldagi «Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi 528-sonli Qarori.

12.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 iyl 21 noyabrdagi «Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 929-sonli Qarori.

13.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 18 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi va uning tizimidagi muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi 991-sonli Qarori.

14.Mirziyoyev SH.M. «Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz» mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. - T.: O‘zbekiston, 2016.

15.Mirziyoyev SH.M. «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi» mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. - T.: O‘zbekiston, 2017.

16.Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - T.: O‘zbekiston. - 2017.

18.Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - T.: O‘zbekiston, 2017.

17.Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. - T.: O‘zbekiston, 2017.

18.Mirziyoyev SH.M. «Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir» mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan

tantanali marosimdagi ma'ruzasi.

19.«Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari» T.: 2017

22.<http://www.edu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.

20.<http://www.uzedu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti.

21.www.mdo.uz - O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi sayti.

22.<http://www.president.uz> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti portali.

23.<http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi hukumati portali.

24.<http://www.lex.uz> - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi sayti.

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

B/B/B texnikasini qo'llash bo'yicha ko'rsatma.

1. Ma'ruza rejasiga mos holda 2-ustunni to'ldiring.
2. O'ylang, juftlikda hal eting va javob bering, ushbu savollar bo'yicha nimani bilasiz, 3-ustunni to'ldiring.
3. O'ylang, juftlikda hal eting va javob bering, ushbu savollar bo'yicha nimani bilish kerak, 4-ustunni to'ldiring.
4. Ma'ruzani tinglang va vizual materiallar bilan tanishing.
5. 5-ustunni to'ltiring.

B/B/B jadvali (Bilar edim/Bilishni xohlayman/Bilib oldim)

№	Mavzu savoli	Bilar edim	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.

1-mavzu: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi–inson huquq va erkinliklarining kafolati.

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlat qonunchilik bazasining asosi ekanligi.
2. Qonunlar va qonunosti hujjatlari to'g'risida tushuncha. O'zbekiston Respublikasida qonunlar va qonun osti hujjatlarini qabul qilish

vakolatiga ega davlat organlari.

3. Vakolatli idoralar tomonidan chiqariladigan huquqiy-me'yoriy hujjatlar haqida.

1992-yil 8-dekabrda 12-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasida qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligini nishonlash maqsadida Konstitutsiya qabul qilingan kun – 8-dekabr umumxalq bayrami – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni deb e'lon qilindi. „O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida“gi Konstitutsiyaviy qonun (1991-yil 31-avgust) ushbu Konstitutsiya uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasini yaratish g'oyasi ilk bor 1990-yil 20-iyunda bo'lib o'tgan mamlakat Oliy Kengashining 2-sessiyasida ilgari surilgan. Ushbu sessiya prezident Islom Karimov raisligida 64 kishidan iborat Konstitutsiyaviy komissiyani tuzish to'g'risida qaror qabul qilgan. Uning tarkibiga deputatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning vakillari, davlat hamda jamoat birlashmalari, korxonalar va xo'jaliklarning rahbarlari, huquqshunos olimlar va mutaxassislar kirgan. Oliy Kengashning 10-sessiyasida komissiya tarkibi qisman yangilangan. Komissiya ishlab chiqqan loyiha matbuotda e'lon qilinib, keng muhokama etilgan. Konstitutsiyaviy komissiya umumxalq muhokamasi yakunlarini ko'rib, loyihani tuzatib va ma'qullab Oliy Kengash sessiyasida ko'rib chiqishga tavsiya qilgan. Loyiha Oliy Kengash sessiyasida ham moddama-modda muhokama etilgandan so'ng qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 1-maydan kuchga kirdi. Bunga 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo'ldi. Bu qonunning 1-moddasiga Konstitutsiyaning yangi tahriri ilova qilingan. Yangi konstitutsiya 65 foizga yangilangan^{[1][2]}.

Kiritilgan o'zgarishlar

[tahrir | manbasini tahrirlash]

Asosiy maqola: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan o'zgartirishlar (2022)

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga hozirgi kunga qadar 15 marta o'zgartirish kiritilgan.

- 1993-yil 28-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 77-moddasi 1-qismidagi „150 nafar deputatdan“ degan so'zlar „deputatlardan“ degan so'z bilan almashtirildi;
- 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendum natijalariga ko'ra hamda uning asosida 2003-yil 24-aprelda qabul qilingan Qonuniga muvofiq, Konstitutsiyaning XVIII, XIX, XX, XXIII boblariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan;

- 2007-yil 11-apreldagi Qonun bilan Konstitutsiyaning 89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga tuzatishlar kiritilgan;
- 2008-yil 25-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 77-moddasi birinchi qismiga o'zgartish kiritilgan;
- 2011-yil 18-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan;
- 2011-yil 12-dekabrda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 90-moddasi ikkinchi qismiga tuzatish kiritilgan;
- 2014-yil 16-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan;
- 2017-yil 6-aprelda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 80, 81, 83, 93, 107, 110 va 111-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan;
- 2017-yil 31-mayda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 80, 93, 108 va 109-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan;
- 2017-yil 29-avgustda qabul qilingan Qonun bilan Konstitutsiyaning 99 va 102-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilgan;
- 2018-yil 15-oktabrda qabul qilingan Qonun bilan 105-moddaning birinchi qismidagi „ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqolni) va uning maslahatchilarini“ degan so'zlar „raisni (oqsoqolni)“ degan so'zlar bilan almashtirilgan;
- 2019-yil 18-fevralda qabul qilingan Qonun bilan 80 va 93-moddalardagi „Milliy“ degan so'z „Davlat“ degan so'z bilan almashtirilgan;
- 2019-yil 5-martda qabul qilingan Qonunga asosan 79, 93 va 98-moddalarga o'zgartirishlar kiritilgan;
- 2019-yil 4-sentabrda qabul qilingan Qonunga asosan saylov to'g'risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan 96 va 117-moddalarga o'zgartirishlar kiritildi.

Shuningdek:

2021-yil 8-fevral kuni „O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida“gi qonun qabul qilindi. O'zgartirishga ko'ra, O'zbekistonda sud tizimi quyidagilardan iboratligi belgilandi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- harbiy sudlar;

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi ma‘muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma‘muriy sudlari;
- Fuqarolik ishlari bo‘yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari;
- Jinoyat ishlari bo‘yicha tuman, shahar sudlari;
- tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari;
- tumanlararo ma‘muriy sudlari^[3].

Tuzilishi

[tahrir | manbasini tahrirlash]

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi muqaddima, 6 bo‘lim, 27 bob, 155 moddadan iborat^[4].

1-bo‘lim (I-IV bob, 1-4-moddalar) „Asosiy prinsiplar“ deb nomlangan.

2-bo‘lim (V-XI bob, 19-64-moddalar) „Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari“ deb ataladi.

3-bo‘lim (XII-XV bob, 65-82-moddalar) „Jamiyat va shaxs“ deb ataladi.

4-bo‘lim (XVI-XVII bob, 83-90-moddalar) „Ma‘muriy-hududiy va davlat tuzilishi“ deb nomlangan.

5-bo‘lim (XVIII-XXVII bob, 91-153-moddalar) „Davlat hokimiyatining tashkil etilishi“ deb nomlangan.

6-bo‘lim (154-155-moddalar) „Konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi“ deb ataladi.

2-mavzu: O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.
2. Uzluksiz ta’lim tizimi, uning taribiy qisimlari va darajasi.
3. Ta’lim sohasida davlat siosatining asosiy prinsiplari

O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23 sentyabr kuni «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunni imzolandi, deya xabar qildi Adliya vazirligi matbuot xizmati. Mazkur hujjat 19 may kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan ikkinchi o‘qishda qabul qilinib, 7 avgustda Senat tomonidan ma’qullangan edi.

Qonunga muvofiq, ta’lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta’lim va tarbiya;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;
- professional ta’lim;

- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Umumiy o'rta ta'lim I-XI sinflarni o'z ichiga oladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda 9 yillik tayanch o'rta ta'lim asosida 2 yil mobaynida amalga oshiriladi.

Professional ta'lim boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim darajalariga ajratiladi.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida kunduzgi ta'lim shaklida 2 yillik integratsiyalashgan dastur asosida bepul amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida davomiyligi 2 yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida davomiyligi kamida 2 yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari президент yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladi.

Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischi tomonidan amalga oshiriladi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladi.

Shuningdek, mazkur Qonun bilan, 1997 yil 29 avgustdagi «Ta'lim to'g'risida»gi hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi Qonunlar o'z kuchini yo'qotdi.

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Uzluksiz ta'lim - o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va birbirini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi. Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shartsharoitlar yaratadi

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillari quyidagilardan iborat: ta'limning ustuvorligi — uning rivojlanishining 1 darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi; ta'limning demokratlashuvi — ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlat-jamiat tizimiga o'tilishi; ta'limning insonparvarlashuvi — inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga bo'lgan turlituman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi; ta'limning ijtimoiylashuvi — ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni

shakllantirish; ta'limning milliy yo'naltirilganligi — ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urfodatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalklarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalklarning tarixi va madaniyatini hurmatlash; ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'likligi, bu jarayonning qar tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi; iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shartsharoitlar yaratish.

Uzluksiz ta'lim ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar

Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- ta'lim ustuvorligining tan olinishi;
- ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
- ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi;
- ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;
- davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

O'zbekistonda ta'lim O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi ustvor sohasi deb e'lon qilingan. Haqiqatan ham davlatning rivojlanishida ta'lim sohasi ustuvordir. Chunki O'zbekistonning jahon hamjihatida o'z obro'li o'rnini egallash vazifasini faqat ta'lim sohasi hal etadi. Xalq xo'jaligining qaysi yo'nalishida faoliyat ko'rsatuvchi kadr ta'lim olmog'i shart. Shuning uchun u kim, qayerda, qanday sohada ishlashidan qat'iy nazar ta'lim olish orqaligina shunday mutaxassislikni egallashi mumkin. Shuning uchun hukumatimiz ta'lim tizimiga milliy daromadning 10% ni sarflamoqda. Bu haqda bobomiz M. Behbudiyning —Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga paymol bo'lur, - deb aytgan so'zlari bag'oyat qimmatli. Ta'limning inson, jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati haqida Imom Al-Buxoriy —Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmag'ayl, - deb bejiz ta'kidlamagan.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining har bir prinsipi barkamol insonni shakllantirishda ta'lim xodimlari, muassasalar oldiga oshirilgan talablar quyiladi, oqibatda malakali kadrlar tayyorlash maqsadi uchun xizmat qiladi. Ularning har birini qisqacha tahlil qilib o'rganamiz.

Birinchi prinsipda ta'lim-tarbiyada insonparvarlik ya'ni u odamning manfaati uchun tashkil qilinadi, uning huquqlarini demokratik qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshirilish nazarda tutiladi.

Ikkinchi prinsipda barcha ta'lim turlarining uzluksizligi va izchil olib borilishi nazarda tutilgan. Ta'limda maqsad asosida o'zi tanlagan sohani u yoki bu darajaga erishishda bu prinsipga amal qilib erishish mumkinligi nazard tutilgan.

Uchinchi prinsipda har bir fuqaroning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishda majburiyligi qonun bilan asoslangan va uni bajarishi ta'minlangan.

To'rtinchi prinsipda yuqoridagi ta'limda ta'lim olishni tanlashning ixtiyoriyligi belgilangan. Hech kim bironing qistovi bilan emas, balki o'z ixtiyori bilan tanlash huquqi kafolatlangan.

Beshinchi prinsipda ta'lim tizimining dunyoviy bilimlarni o'qitish, o'rgatish g'oyasi ilgari surilgan. Faqat inson manfaati uchun kerakli dunyoviy bilimlar o'quvchilarga o'qitilishi asoslangan.

Oltinchi prinsipda o'rgatiladigan ta'lim davlat standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi huquqiy kafolatlangan. Fuqarolarga foydasi tegmaydigan bilimlar o'qitish cheklangan.

Yettinchi prinsipda o'quvchilarga ta'lim berishda dasturlarni tanlashga yagona yondashuv nazarda tutilgan. Masalan, umumiy o'rta ta'lim yoki oliy ta'lim dasturlari bir yagona maqsadni nazarda tutadi, ya'ni o'qish vaqti, mazmuni, soatlari, yagona tarzda belgilangan. Yana mazkur ta'limni amalga oshirishda tabaqalashtirilgan yondashuv deyilganda ba'zan o'quvchilarning xohishlari hisobga olinib kuchaytirib o'qitiladigan muassasalar faoliyati asoslanib shunday imkoniyat yaratish nazarda tutilgan. Yuqoridagi har ikki talab O'zbekistonning barcha shu tipdagi muassasalarida yagona tartibda amalga oshirishi ta'minlanadi.

Sakkizinchi prinsipda ta'lim olishda qatnashuvchi o'quvchilarning bilimli bo'lishi va iste'dodini taraqqiy ettirishi, rag'batlantirishi nazarda tutilgan. Masalan, a'lo bahoga o'qiydigan o'quvchilar, talabalar xukumat tomonidan moddiy va ma'naviy rag'batlantirishi amalga oshirilishi belgilab berilgan. Stipendiya, yo'llanmalar va boshqa mukofot shakllari asoslab ko'rsatilgan. Uni bajarishi davlat siyosatligi belgilangan.

To'qqizinchi prinsipda tizimini boshqaruvining davlat va jamoat tajribasi uyg'un uzviy bog'liq holda joriy etilishi nazarda tutilgan. Bu prinsip o'z navbatida davlatni demokratik tamoyillar asosida huquqiy boshqarishga fuqarolarni tayyorlashni nazarda tutadi.

Umuman, ta'lim sohasidagi barcha prinsiplar inson, jamiyat, umumbashariy manfaatlarini birlashtirib, barkamol malakali mutaxassilarni tayyorlashni nazarda tutgan. Bunday kadrlar O'zbekistonning bundan keyingi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan deb xulosalash mumkin.

3-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari

Reja:

1. Respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda barcha sohalarni qamrab olgan holda keng islohotlar amalga oshirildi hamda bu ishlar hozirgi davrda yangi bosqich va keng ko'lamda yanada izchil davom ettirilmoqda. U hoh davlat boshqaruv tuzilmasi bo'lsin, hoh sog'liqni saqlash, sport, ta'lim — qo'yingki, barcha jabhalarda ijobiy natijasini bermoqda. Ta'kidlash joiz, bugungi globallashuv davrida, dunyoda mafkuraviy kurash avj olgan sharoitda doimo ogoh, sezgir va ma'naviy uyg'oq bo'lib yashashimiz, eng katta boyligimiz bo'lmish yurtimizdagi millatlararo ahillik, o'zaro mehr-oqibat hamda hamjihatlik muhitini ko'z qorachig'idek asrash va mustahkamlash yo'lida olib borilayotgan ishlarimizning ma'no-mazmunini tushunib etishimiz lozim. O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifadir. Bu esa oilada va o'quv dargohlarida ta'lim hamda tarbiyaga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mazkur soha echimiga qaratilgan qator qonun hujjatlari imzolanib, farmon, qaror va farmoyishlar qabul qilinmoqda. Bular yurtimizda ma'nan etuk, dunyoqarashi teran, mustaqil fikrlovchi, e'tiqodi mustahkam, siyosiy-ma'naviy saviyasi hozirgi davr talablariga to'la javob beradigan barkamol avlodni kamol toptirishga hizmat qilmoqda. Inson mohiyati moddiyat va ma'naviyatning tutashuvida namoyon bo'ladi. Har bir shahs, har bir ijtimoiy guruh yoki toifa, har bir elat, millat va mintaqa halqlari o'z tabiati bilan yaratilgan. Zero, ma'naviyat va uni anglash masalalariga oqilona, konkret sharoitni hisobga olib yondashish — komil insonni tarbiyalashning yangi yo'llarini ochishda muhim ahamiyatga ega. Bedil aytganidek, me'mor dastlabki g'ishtni to'g'ri qo'ymasa, binoning boshi yulduzlarga etsa ham, u qiyshiq bo'lib qolaveradi. Shunday ekan, jamiyatda inson o'rni uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma'naviy qiyofasi bilan belgilanadi. Binobarin, ma'naviyat — ajdodlarni avlodlarga, tarixni bugunga, bugunni kelajakka bog'lovchi ko'priki. U ota-bobolarimizdan meros jamiki noyob fazilatlar, qadriyatlar va an'analarning majmui, qolaversa, ular to'plagan tarihiy-ijtimoiy tajriba va barcha qarashlarni o'zida mujassam etadi. "O'zbekiston yoshlar ittifoqi,—deb ta'kidladi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev "Kamolot" YoIH IV qurultoyidagi nutqida,—jahon madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz merosiga hurmat, unga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, bu bebaho boylikni chuqur o'rganish va keng targ'ib etishga qaratilgan mazmundor, ta'sirchan loyihalarni amalga oshirishda tashabbus

ko'rsatishi nur ustiga nur bo'lur edi". Darhaqiqat, jahonga mashhur ajdodlarimiz — buyuk davlat arboblari, sarkarda Amir Temur, Bobur Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi nafaqat mardlik, adolatparvarlik, insonparvarlik, ilm-fan bobida o'rnak bo'lganlar, balki o'z askarlari, bo'lajak el-yurt himoyachilari tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratganlar. Horazmiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Furqat singari bashariyat sivilizasiyasi va uning porloq kelajagiga beqiyos, katta hissa qo'shgan buyuk mutafakkir ajdodlarimiz hamda din ilmda olamga dong taratgan Imom Buhoriy, Bahouddin Naqshband, Yassaviy kabi ulamolarimiz yoshlarga ma'naviy va jismoniy kamolot bo'yicha saboq berganlar. Yaqin o'tmishimizda yashab o'tgan mutafakkir ma'rifatchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Mahmud Behbudiy, Usmon Nosir va boshqa ko'pgina buyuk adiblarimizning asarlari yoshlar hayoti va tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ammo, sobiq sho'rolar davrida ulug' ajdodlarimizning bebaho madaniy-ma'naviy merosi halqimiz, yoshlarimiz ongiga o'zgacha talqin bilan taqdim etildi. Mustaqillik tufayli va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning odilona siyosati asosida millatimiz genofondini shakllantirish va barkamol avlodni tarbiyalash vositasi bo'lmish jismoniy tarbiya va sport tobora milliy istiqlol mafkurasining "strategik quroli"ga aylanib bormoqda. Yaqinda, 2017 yil 10 avgustda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan "Nufuzli halqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O'zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag'batlantirish to'g'risida"gi qarori yurtimizda barkamol avlodning ma'nan va jismonan kamol topishiga xizmat qilmoqda. Ma'lumki, ma'naviy-madaniy, ruhiy-ahloqiy hislatlar va insoniy qadriyatlar avvalambor, bolalikdan shakllana boshlaydi. Bolalar erta go'daklikdan boshlab ota-onalari, bobobuvilari va boshqa oila a'zolarining yurish-turishlari, odob-ahloqlari, muomala munosabatlari, oilaviy urf-odatlar, rasm-rusumlar, udum va an'analariga qarab, ibrat olishga harakat qiladilar. Barkamol avlod ma'naviyatini shakllantiruvchi yagona manba esa tarbiyadir. Ma'rifat va bilimni shakllantiruvchi manba — ta'lim, saboqdir. Binobarin "ta'lim va tarbiya" emas, aksincha, "tarbiya va ta'lim" deb aytish maqsadga muvofiqdir. Insonni barkamol etib tarbiyalashda badiiy asarlarning o'rni katta. Shuning uchun ham Prezidentimiz, ta'kidlaganidek, ahborot-kommunikasiya sohasidagi ohirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 12 yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni va rolini yana bir

yangi bosqichga ko'tardi. Bugun ba'zi yoshlarimizning "ommaviy madaniyat" ta'sirida ma'naviy dunyoqarashi tobora tubanlashib borayotir. Ho'sh, unga qarshi kurashda qanday chora-tadbirlarni ko'rish lozim, degan savol tug'iladi. Buning echimini topish uchun, fikrimizcha, ta'lim-tarbiya tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olish kerak. Ular orasida bizningcha eng muhim ahamiyat kasb etadiganlari qatoriga quyidagilar kiradi:—mafkuraviy ishlarni mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirib, yorug' va erkin hayot sari olg'a yurishga yo'naltirish;—yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va halq farovonligi kabi yuksak tushunchalar bilan birga milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik kabi tamoyillarning ma'no-mohiyatini ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarining markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish;—yoshlarni ona -Vatanga muhabbat, boy tarihimizga, otabobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish;—ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirish;—yurtdoshlarimiz, ayniqsa yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shafqatsiz o'yinlari to'g'risida har taraflama va haqiqiy tasavvurlarni shakllantirish kabilardir. Halqimiz, birinchi galda, yoshlarni erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zlaydigan mafkuraviy-g'oyaviy hurujlardan himoya qilish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Soib RAUPOV, Buxoro davlat universitetining Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedراسi mudiri.

4-mavzu: Davlat ta'lim standartlari. Klassifikator. O'quv rejalar. Fan dasturlari, buyruqlari, yo'riqnomalar va boshqa me'yoriy hujjatlarning mazmuni va mohiyati.

Reja:

1. Davlat ta'lim standartlari. Klassifikator. O'quv rejalar.
2. Fan dasturlari, buyruqlari, yo'riqnomalar va boshqa me'yoriy hujjatlarning mazmuni va mohiyati.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-son "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT STANDARTI

Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar

O‘z DSt 3556:2021

Kirish

Mazkur davlat standarti O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek YUNESKO (UNESCO) tomonidan joriy qilingan “Ta’limning xalqaro standart klassifikatsiyasi” (TXSK 2011) va “TXSK: Ta’lim va kasbiy tayyorlash sohalari”ga (TXSK-S 2013) muvofiq ishlab chiqilgan.

1. Umumiy qoidalar

1. “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar” (bundan buyon matnda Davlat ta’lim standartlari deb yuritiladi):

kadrlar tayyorlash sifatiga, ta’limning mazmuniga qo‘yiladigan umumiy talablarni;

ta’lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli bilim darajasi hamda oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan umumiy malakaviy talablarni;

o‘quv yuklamasining hajmini;

ta’lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda mexanizmini belgilaydi.

2. Davlat ta’lim standartlari o‘quv jarayonini, ta’lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli hujjatlarni (bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o‘quv rejalari, o‘quv dasturlari va boshqalar) ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

3. Davlat ta’lim standartlari oliy ma’lumotli kadrlar tayyorlashda idoraviy bo‘ysunuv va mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining davlat ta’lim standartlari asosida kadrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun majburiydir.

Nodavlat ta’lim tashkilotlari mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko‘rsatilgan o‘quv dasturlari asosida ta’lim faoliyatini amalga oshirishlari mumkin.

2. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga havolalar

O‘z DSt 1.0:1998 O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar;

O‘z DSt 1.8:2009 O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Tavsiyanomalar. Asosiy qoidalar;

O‘z DSt 1.9:1995 O‘zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Tarmoq standartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi.

3. Atamalar va ta’riflar

Mazkur davlat standartida quyidagi atamalar qo‘llaniladi:

oliy ta’lim — uzluksiz ta’limning oliy ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi ikki bosqichdan iborat (bakalavriat va magistratura) mustaqil turi;

bakalavriat — oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir;

magistratura — tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir;

oliy ma'lumot darajasi — shaxs tomonidan oliy ta'limning muayyan o'quv rejalari va o'quv dasturlarini mazkur ma'lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda o'zlashtirishi natijasi;

oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom) — akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta'limning o'quv rejalari va o'quv dasturlarini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi;

oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori — oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati;

malaka talablari — oliy ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar;

o'qitishning me'yoriy muddati — ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv rejalari va o'quv dasturlarini o'zlashtirilishi uchun belgilangan muddat;

o'quv fanlari bloki — o'quv rejalarda belgilangan fanlar majmualari, qoida tariqasida "majburiy fanlar" bloki va "tanlov fanlari" blokiga ajratiladi;

o'quv reja — oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta'lim davrining to'liq muddati uchun belgilaydigan hujjat;

o'quv yuklama — o'quv dasturlarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan akademik soatlar hajmi;

o'quv fani — ta'lim jarayonida muayyan ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan tegishli ilmiy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy sohalaridan saralab olingan bilim va ko'nikmalar tizimi;

o'quv yili — oliy ta'lim muassasasida bir ta'lim kursini yakunlashga mo'ljallangan o'quv faoliyati davri. O'quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2021/2022 o'quv yili;

o'quv semestri — oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi. Ayrim hollarda o'quv semestri o'quv yilining uchdan bir qismini tashkil etishi mumkin;

o'quv dasturi — ta'lim mazmunini belgilovchi o'quv fanining asosiy mavzulari, mazmuni, o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan hujjat;

malaka amaliyoti — o'quv jarayonining nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikma hosil qilish, o'quv rejalari va o'quv dasturlarning ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan bir qismi;

yakuniy davlat attestatsiyasi — bakalavr yoki magistr akademik darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartib asosida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim o'quv reja va o'quv dasturlarining o'zlashtirish darajasi hamda sifatini baholash jarayoni;

o'qitish sifatini nazorat qilish — ta'lim oluvchining bilim saviyasini tekshirish va uning o'quv dasturini o'zlashtirish darajasini aniqlash;

ta'lim sifatini nazorat qilish — o'qitish mazmuni va natijalarining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish;

oliy ta'lim muassasasi attestatsiyasi — davlat ta'lim standartlariga muvofiq oliy ta'lim muassasasi faoliyatini baholash va kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli;

oliy ta'lim muassasasi akkreditatsiyasi — oliy ta'lim muassasasi faoliyati darajasini davlat ta'lim standartlarining mezon va talablariga javob berishi hamda bitiruvchilar oliy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni berish huquqining davlat tomonidan e'tirof etilishi;

tajriba orttirish (ishlab chiqarishda, ilmiy-tadqiqot muassasasida, xorijda tajriba orttirish) — magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va o'quv dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrnlarni eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, mudofaa, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash va boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot olib borishi.

4. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari o'quv rejalari va o'quv dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

4.1. Bakalavriat

Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim bilan uzviylik va uzluksizligi ta'minlangan holda, oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv rejalar tarkibiga o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki va tanlab o'zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki kiradi.

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda tegishli sohalarning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq o'quv rejalaridagi bloklar tarkibi o'zgartirilishi mumkin.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalari va o'quv dasturlarini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilar auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda o'quv fanlari bo'yicha mustaqil mashg'ulotlarni bajarishi va mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ta'lim jarayoni o'quv rejalariga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanadi.

O'quv rejalar va o'quv dasturlar kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqiladi. Ayrim (zarur) hollarda o'quv rejalar va o'quv dasturlar reyting (baholash) tizimi asosida ishlab chiqilishi mumkin.

4.1.1. O'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar:

majburiy fanlar bloki fanlarni chuqur o'zlashtirilishini taqozo etadi va ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatini boyitish, ta'lim yo'nalishi va sohaga oid zarur fundamental bilimlar, kasbiy ko'nikma, uquv va kompetensiyalarni shakllantirishi, bitiruvchiga tanlangan yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish hamda muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga zamin yaratishi lozim.

tanlov fanlari bloki bakalavriat yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirilishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengayishini ta'minlashi, ta'lim trayektoriyalariga muvofiq kasbiy bilim va malakalarni o'zlashtirishga imkon yaratishi lozim.

4.1.2. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari malaka amaliyotlariga qo'yiladigan umumiy talablar.

Ta'lim oluvchilar kasbiy ko'nikmalarni mukammal egallashi uchun o'quv rejalar va muayyan fanlarning o'quv dasturlarida o'quv (tanishuv), ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) va bitiruv oldi malaka amaliyotlari nazarda tutilishi shart.

Amaliyotlar bakalavriat ta'lim jarayonining majburiy qismi bo'lib, talabalarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Bakalavrlar tayyorlashda quyidagi malaka amaliyotlari o'tkaziladi:

o'quv (tanishuv) amaliyoti — iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

ishlab chiqarish amaliyoti — umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti — ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot — kasb ta'limi yo'nalishlari uchun qo'llaniladi va pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malaka amaliyotlarining boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

Har bir amaliyot turi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va real sektorning tegishli ilg'or korxona, tashkilot va muassasalari, xorijiy va qo'shma korxonalar, ilmiy tashkilotlar, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va boshqa muassasalarida, dala sharoitlarida, maxsus tajriba (poligon) obyektlarida va boshqalarda o'tkaziladi.

Amaliyotlarni tashkil qilish, o'tkazish va talabalarni baholash mezonlarini belgilash oliy ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

4.2. Magistratura

Magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejaları va o'quv dasturlari mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va

boshlang'ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo'yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni nazarda tutgan holda shakllantiriladi.

Oliy ta'lim magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari bilan uzviylik va uzluksizligini ta'minlagan holda oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv rejalar tarkibiga o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki, tanlab o'zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki va ilmiy faoliyat bloki kiradi.

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda tegishli sohalarning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq o'quv rejalaridagi bloklar tarkibi o'zgartirilishi mumkin.

Magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejalari va o'quv dasturlarini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilar auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda o'quv fanlari bo'yicha mustaqil mashg'ulotlarni bajarishi va mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Magistratura mutaxassisliklarining o'quv jarayoni o'quv rejalariga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi (magistrlik dissertatsiyasining himoyasi) bilan tugallanadi.

4.2.1. O'quv rejaning o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan minimal talablar:

majburiy fanlar bloki ilmiy tadqiqot metodologiyasi, ilmiy izlanish va tahlil, empirik va nazariy tadqiqot usullari, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiyalar, ta'limning zamonaviy usullari, mutaxassislikka doir dolzarb va chuqur ilmiy, metodologik, ilmiy-texnik, texnologik bilim, uquv, ko'nikma va kompetensiyalarni ta'lim oluvchilarda shakllantirishi hamda muayyan doktorantura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga zamin yaratishi lozim.

tanlov fanlari bloki mutaxassislik bo'yicha ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda ilmiy, pedagogik va kasbiy kompetensiyalarini kengayishini ta'minlashi, ta'lim trayektoriyalariga muvofiq magistr darajasidagi kasbiy bilim va malakalarni o'zlashtirishga imkon yaratishi lozim.

ilmiy faoliyat bloki ilmiy-tadqiqotlar nazariyasi va amaliyoti o'zlashtirilishini, ta'lim oluvchilar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida muayyan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Bunda:

ilmiy-tadqiqot amaliyoti ta'lim oluvchilar mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi, ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, zamonaviy axborot bazalarini qo'llash, ilmiy maqolalar va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashga doir bilim, uquv va ko'nikmalarni shakllantirishi lozim;

ilmiy-pedagogik amaliyoti zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishi, o'quv

jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etishga doir kompetensiya va ko'nikmalarni hosil qilishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot amaliyoti taqozo etganda yakka tartibda ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tajriba orttirish jarayoni tashkil etiladi. Bunda tajriba orttirish jarayoniga yo'llangan ta'lim oluvchi o'quv jarayoni jadvalini yakka tartibdagi ish rejasi asosida bajarishi ko'zda tutiladi.

tajriba orttirish ta'lim oluvchilarning ilmiy-tadqiqot olib borishi, nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish, muayyan soha va tarmoqdagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishishi, amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllanishi, kasbga samarali moslashuvini ta'minlashi lozim.

4.2.2. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv rejalar ta'lim davrining to'liq me'yoriy muddati uchun (birinchi kursdan yakuniy kursgacha) ishlab chiqiladi va bu davrda ularga o'zgartirish kiritish, ularni bekor qilish, o'rniga boshqa o'quv reja ishlab chiqib tatbiq etishga yo'l qo'yilmaydi.

5. Bitiruvchilarning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarining asosiy qoidalari

5.1. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan talablar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablarida bayon etiladi.

“Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi” (TXSK 2011)ga muvofiq O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida bakalavriat 6-malaka darajasiga, magistratura 7-malaka darajasiga mansubdir.

Bakalavrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil samarali mehnat faoliyatini yuritishini ta'minlashi hamda tegishli mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish imkonini berishi lozim.

Magistrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari mutaxassislik bo'yicha magistr akademik darajali shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyati bilan samarali shug'ullanishini ta'minlashi, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'limda (tayanch doktorantura, mustaqil izlanuvchi) tahsil olish imkonini berishi lozim.

5.2. Bakalavr va magistr larni tayyorlash oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturi asosida kunduzgi, kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi) va zarur hollarda masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoni kredit-modul tizimi asosida amalga oshiriladi. Ayrim (zarur) hollarda ta'lim jarayoni reyting (baholash) tizimi asosida amalga oshirilishi mumkin.

O'quv dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan bakalavriat ta'lim oluvchilariga “bakalavr” akademik darajasi, magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan magistratura ta'lim oluvchilariga “magistr” akademik darajasi hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjatlar beriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlar ("Double degree") asosida ham amalga oshiriladi. Bunda ta'lim jarayoni davlat ta'lim standartlariga tayangan holda mahalliy yoki mahalliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tuzilgan kelishuv (shartnoma)da belgilangan talablar asosida tuziladigan hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv reja va o'quv dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5.3. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining ta'limni davom ettirish imkoniyatlari:

bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining bitiruvchilari magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'qishni davom ettirish huquqiga ega. Muayyan bakalavriat yo'nalishlari uchun o'qishni davom ettirish bo'yicha magistratura mutaxassisliklarining ro'yxatini oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi belgilaydi;

magistratura mutaxassisliklarining bitiruvchilari tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik institutlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini belgilangan tartibda amalga oshirishi mumkin.

6. O'quv yuklamasining hajmi

6.1. Bakalavriat

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining hajmi bir o'quv yili uchun 60 kredit, bir semestr uchun 30 kredit qilib belgilanadi. 1 kredit 30 akademik soat o'quv yuklamasiga tengdir.

Reyting (baholash) tizimi asosida ta'lim jarayonini amalga oshirayotgan oliy ta'lim muassasalari uchun barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 akademik soat qilib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining hajmi haftasiga:

kredit-modul tizimi asosida ta'lim jarayoni amalga oshirilayotganda 22 — 32 akademik soat oraligida;

reyting (baholash) tizimi asosida ta'lim jarayoni amalga oshirilayotganda 22 — 36 akademik soat oraligida belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki) o'qish shakli uchun bir haftada odatda besh kun, auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 20 soat qilib belgilanadi.

5-mavzu: 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari.

Reja:

1. Ta'lim sohasidagi islohotlar. Huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida barcha sohalaridagi kabi maktabgacha ta'lim tizimida ham «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» talablaridan kelib chiqqan holda bolalarga huquqiy ta'lim-tarbiya berish masalalarini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdan himoyalash to'g'risida»gi Qonunlari

Bugun Yangi O'zbekiston «Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat» degan muhim g'oya negizida barpo etilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev belgilab bergan bu ulug'vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

Xususan, «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyili asosida aholi farovonligini yanada yuksaltirish, iqtisod tarmoqlarini transformatsiya qilish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish maqsadida Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasi ishlab chiqilib, 2021-yil 31-dekabrda boshlab, 2022–2026.strategy.uz, jamoatchilik.uz va regulation.gov.uz elektron platformalari orqali keng jamoatchilik o'rtasida muhokama uchun joylashtirildi. Shu tariqa yurtimiz aholisi uchun o'z takliflarini bildirish imkoniyati yaratildi. Hujjat loyihasi muhokamasi 2022-yilning 15-yanvar kuniga qadar davom etdi.

Ta'kidlash joizki, Taraqqiyot strategiyasi loyihasi xalqimizning yuksak ishonch va e'tirofiga sazovor bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida bayon qilingan maqsad va vazifalar asosida ishlab chiqildi. Undan tashqari, ushbu hujjat loyihasida keng jamoatchilik, yuzdan ortiq vazirlik, idora, tashkilot va hokimliklar tomonidan kelib tushgan takliflar ham o'z aksini topdi.

Davlat rahbari ta'kidlaganidek, «bu muhim konseptual hujjatda islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» degan tamoyil asosiy g'oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo'yildi».

Taraqqiyot strategiyasi loyihasida mamlakatni rivojlantirishning:

1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.
2. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.
3. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash.
4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish.

5. Taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish.

6. Umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish.

7. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish kabi 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida 94 ta maqsadga erishish nazarda tutildi.

AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG'ULOT.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.

1-mavzu: O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.

Reja:

4. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.
5. Uzluksiz ta'lim tizimi, uning taribiy qisimlari va darajasi.
6. Ta'lim sohasida davlat siosatining asosiy prinsiplari

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 23 sentyabr kuni «Ta'lim to'g'risida»gi qonunni imzolandi, deya xabar qildi Adliya vazirligi matbuot xizmati. Mazkur hujjat 19 may kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilinib, 7 avgustda Senat tomonidan ma'qullangan edi.

Qonunga muvofiq, ta'lim turlari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim va tarbiya;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim;
- professional ta'lim;
- oliy ta'lim;
- oliy ta'limdan keyingi ta'lim;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Umumiy o'rta ta'lim I-XI sinflarni o'z ichiga oladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda 9 yillik tayanch o'rta ta'lim asosida 2 yil mobaynida amalga oshiriladi.

Professional ta'lim boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim darajalariga ajratiladi.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida kunduzgi ta'lim shaklida 2 yillik integratsiyalashgan dastur asosida bepul amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida davomiyligi 2 yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida davomiyligi kamida 2 yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, shuningdek davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etiladi.

Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischi tomonidan amalga oshiriladi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladi.

Shuningdek, mazkur Qonun bilan, 1997 yil 29 avgustdagi «Ta'lim to'g'risida»gi hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi Qonunlar o'z kuchini yo'qotdi.

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Uzluksiz ta'lim - o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va birbirini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi. Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shartsharoitlar yaratadi

Uzluksiz ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillari quyidagilardan iborat: ta'limning ustuvorligi — uning rivojlanishining 1darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta'lim va yuksak intellektning nufuzi; ta'limning demokratlashuvi — ta'lim va tarbiya uslublarini tanlashda o'quv yurtlari mustaqilligining kengayishi, ta'limni boshqarishning davlatjamiyat tizimiga o'tilishi; ta'limning insonparvarlashuvi — inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga bo'lgan turlituman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrofmuhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuvi; ta'limning ijtimoiylashuvi — ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni hosil qilish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashni shakllantirish; ta'limning milliy yo'naltirilganligi — ta'limning milliy tarix, xalq an'analari va urfodatlari bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalklarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalklarning tarixi va madaniyatini hurmatlash; ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'likligi, bu jarayonning qar tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi; iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shartsharoitlar yaratish.

Uzluksiz ta'lim ta'lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar

Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:

- ta'lim ustuvorligining tan olinishi;
- ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;

- ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
- ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;
- davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

O'zbekistonda ta'lim O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi ustvor sohasi deb e'lon qilingan. Haqiqatan ham davlatning rivojlanishida ta'lim sohasi ustuvordir. Chunki O'zbekistonning jahon hamjihatida o'z obro'li o'rnini egallash vazifasini faqat ta'lim sohasi hal etadi. Xalq xo'jaligining qaysi yo'nalishida faoliyat ko'rsatuvchi kadr ta'lim olmog'i shart. Shuning uchun u kim, qayerda, qanday sohada ishlashidan qat'iy nazar ta'lim olish orqaligina shunday mutaxassislikni egallashi mumkin. Shuning uchun hukumatimiz ta'lim tizimiga milliy daromadning 10% ni sarflamoqda. Bu haqda bobomiz M. Behbudiyning —Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga paymol bo'lur, - deb aytgan so'zlari bag'oyat qimmatli. Ta'limning inson, jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati haqida Imom Al-Buxoriy —Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmag'ayl, - deb bejiz ta'kidlamagan.

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining har bir prinsipi barkamol insonni shakllantirishda ta'lim xodimlari, muassasalar oldiga oshirilgan talablar quyiladi, oqibatda malakali kadrlar tayyorlash maqsadi uchun xizmat qiladi. Ularning har birini qisqacha tahlil qilib o'rganamiz.

Birinchi prinsipda ta'lim-tarbiyada insonparvarlik ya'ni u odamning manfaati uchun tashkil qilinadi, uning huquqlarini demokratik qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshirilish nazarda tutiladi.

Ikkinchi prinsipda barcha ta'lim turlarining uzluksizligi va izchil olib borilishi nazarda tutilgan. Ta'limda maqsad asosida o'zi tanlagan sohani u yoki bu darajaga erishishda bu prinsipga amal qilib erishish mumkinligi nazard tutilgan.

Uchinchi prinsipda har bir fuqaroning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishda majburiyligi qonun bilan asoslangan va uni bajarishi ta'minlangan.

To'rtinchi prinsipda yuqoridagi ta'limda ta'lim olishni tanlashning ixtiyoriyligi belgilangan. Hech kim bironing qistovi bilan emas, balki o'z ixtiyori

bilan tanlash huquqi kafolatlangan.

Beshinchi prinsipda ta'lim tizimining dunyoviy bilimlarni o'qitish, o'rgatish g'oyasi ilgari surilgan. Faqat inson manfaati uchun kerakli dunyoviy bilimlar o'quvchilarga o'qitilishi asoslangan.

Oltinchi prinsipda o'rgatiladigan ta'lim davlat standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi huquqiy kafolatlangan. Fuqarolarga foydasi tegmaydigan bilimlar o'qitish cheklangan.

Yettinchi prinsipda o'quvchilarga ta'lim berishda dasturlarni tanlashga yagona yondashuv nazarda tutilgan. Masalan, umumiy o'rta ta'lim yoki oliy ta'lim dasturlari bir yagona maqsadni nazarda tutadi, ya'ni o'qish vaqti, mazmuni, soatlari, yagona tarzda belgilangan. Yana mazkur ta'limni amalga oshirishda tabaqalashtirilgan yondashuv deyilganda ba'zan o'quvchilarning xohishlari hisobga olinib kuchaytirib o'qitiladigan muassasalar faoliyati asoslanib shunday imkoniyat yaratish nazarda tutilgan. Yuqoridagi har ikki talab O'zbekistonning barcha shu tipdagi muassasalarida yagona tartibda amalga oshirishi ta'minlanadi.

Sakkizinchi prinsipda ta'lim olishda qatnashuvchi o'quvchilarning bilimli bo'lishi va iste'dodini taraqqiy ettirishi, rag'batlantirishi nazarda tutilgan. Masalan, a'lo bahoga o'qiydigan o'quvchilar, talabalar xukumat tomonidan moddiy va ma'naviy rag'batlantirishi amalga oshirilishi belgilab berilgan. Stipendiya, yo'llanmalar va boshqa mukofot shakllari asoslab ko'rsatilgan. Uni bajarishi davlat siyosatligi belgilangan.

To'qqizinchi prinsipda tizimini boshqaruvining davlat va jamoat tajribasi uyg'un uzviy bog'liq holda joriy etilishi nazarda tutilgan. Bu prinsip o'z navbatida davlatni demokratik tamoyillar asosida huquqiy boshqarishga fuqarolarni tayyorlashni nazarda tutadi.

Umuman, ta'lim sohasidagi barcha prinsiplar inson, jamiyat, umumbashariy manfaatlarini birlashtirib, barkamol malakali mutaxassilarni tayyorlashni nazarda tutgan. Bunday kadrlar O'zbekistonning bundan keyingi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan deb xulosalash mumkin.

2-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari

Reja:

2. Respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va farmoyishlari.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida mamlakatimizda barcha sohalarni qamrab olgan holda keng islohotlar amalga oshirildi hamda bu ishlar hozirgi davrda yangi bosqich va keng ko'lamda yanada izchil davom ettirilmoqda. U hoh davlat boshqaruv tuzilmasi bo'lsin, hoh sog'liqni saqlash, sport, ta'lim — qo'yingki, barcha jabhalarda ijobiy natijasini bermokda. Ta'kidlash joiz, bugungi globallashuv davrida, dunyoda

mafkuraviy kurash avj olgan sharoitda doimo ogoh, sezgir va ma'naviy uyg'oq bo'lib yashashimiz, eng katta boyligimiz bo'lmish yurtimizdagi millatlararo ahillik, o'zaro mehr-oqibat hamda hamjihatlik muhitini ko'z qorachig'idek asrash va mustahkamlash yo'lida olib borilayotgan ishlarimizning ma'no-mazmunini tushunib etishimiz lozim. O'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va millatparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifadir. Bu esa oilada va o'quv dargohlarida ta'lim hamda tarbiyaga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mazkur soha echimiga qaratilgan qator qonun hujjatlari imzolanib, farmon, qaror va farmoyishlar qabul qilinmoqda. Bular yurtimizda ma'nan etuk, dunyoqarashi teran, mustaqil fikrlovchi, e'tiqodi mustahkam, siyosiy-ma'naviy saviyasi hozirgi davr talablariga to'la javob beradigan barkamol avlodni kamol toptirishga hizmat qilmoqda. Inson mohiyati moddiyat va ma'naviyatning tutashuvida namoyon bo'ladi. Har bir shahs, har bir ijtimoiy guruh yoki toifa, har bir elat, millat va mintaqahalqlari o'z tabiati bilan yaratilgan. Zero, ma'naviyat va uni anglash masalalariga oqilona, konkret sharoitni hisobga olib yondashish — komil insonni tarbiyalashning yangi yo'llarini ochishda muhim ahamiyatga ega. Bedil aytganidek, me'mor dastlabki g'ishtni to'g'ri qo'ymasa, binoning boshi yulduzlarga etsa ham, u qiyshiq bo'lib qolaveradi. Shunday ekan, jamiyatda inson o'rnini uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma'naviy qiyofasi bilan belgilanadi. Binobarin, ma'naviyat — ajdodlarni avlodlarga, tarihnii bugunga, bugunni kelajakka bog'lovchi ko'priki. U ota-bobolarimizdan meros jamiki noyob fazilatlar, qadriyatlar va an'analarning majmui, qolaversa, ular to'plagan tarihiy-ijtimoiy tajriba va barcha qarashlarni o'zida mujassam etadi. "O'zbekiston yoshlar ittifoqi, — deb ta'kidladi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev "Kamolot" Yo'li IV qurultoyidagi nutqida, — jahon madaniyati rivojiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz merosiga hurmat, unga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, bu bebaho boylikni chuqur o'rganish va keng targ'ib etishga qaratilgan mazmundor, ta'sirchan loyihalarni amalga oshirishda tashabbus ko'rsatishi nur ustiga nur bo'lur edi". Darhaqiqat, jahonga mashhur ajdodlarimiz — buyuk davlat arboblari, sarkarda Amir Temur, Bobur Mirzo, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi nafaqat mardlik, adolatparvarlik, insonparvarlik, ilm-fan bobida o'rnak bo'lganlar, balki o'z askarlari, bo'lajak el-yurt himoyachilari tarbiyasiga ham alohida e'tibor qaratganlar. Horazmiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Alisher Navoiy, Furqat singari bashariyat sivilizasiyasi va uning porloq kelajagiga beqiyos, katta hissa qo'shgan buyuk mutafakkir ajdodlarimiz hamda din ilmidan olamga dong taratgan Imom Buhoriy, Bahouddin Naqshband, Yassaviy kabi ulamalarimiz yoshlarga ma'naviy va jismoniy kamolot bo'yicha saboq berganlar. Yaqin o'tmishimizda yashab o'tgan mutafakkir ma'rifatchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon, Mahmud Behbudiy, Usmon Nosir va boshqa ko'pgina buyuk adiblarimizning asarlari yoshlar hayoti va tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ammo, sobiq sho'rolar davrida ulug' ajdodlarimizning bebaho madaniy-ma'naviy merosi halqimiz, yoshlarimiz ongiga o'zgacha talqin bilan taqdim etildi. Mustaqillik tufayli va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning odilona siyosati asosida millatimiz genofondini shakllantirish va barkamol avlodni tarbiyalash vositasi bo'lmish jismoniy tarbiya va

sport tobora milliy istiqlol mafkurasining "strategik quroli"ga aylanib bormoqda. Yaqinda, 2017 yil 10 avgustda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan "Nufuzli halqaro sport musobaqalarida yuksak natijalarga erishgan O'zbekiston sportchilarini jamoat va sport ishlariga keng jalb etish hamda sportchilarni va ularning trenerlarini rag'batlantirish to'g'risida"gi qarori yurtimizda barkamol avlodning ma'nan va jismonan kamol topishiga hizmat qilmoqda. Ma'lumki, ma'naviy-madaniy, ruhiy-ahloqiy hislatlar va insoniy qadriyatlar avvalambor, bolalikdan shakllana boshlaydi. Bolalar erta go'daklikdan boshlab ota-onalari, bobobuvilari va boshqa oila a'zolarining yurish-turishlari, odob-ahloqlari, muomalamunosabatlari, oilaviy urf-odatlar, rasm-rusumlar, udum va an'analarga qarab, ibrat olishga harakat qiladilar. Barkamol avlod ma'naviyatini shakllantiruvchi yagona manba esa tarbiyadir. Ma'rifat va bilimni shakllantiruvchi manba — ta'lim, saboqdir. Binobarin "ta'lim va tarbiya" emas, aksincha, "tarbiya va ta'lim" deb aytish maqsadga muvofiqdir. Insonni barkamol etib tarbiyalashda badiiy asarlarning o'rni katta. Shuning uchun ham Prezidentimiz, ta'kidlaganidek, ahborot-kommunikatsiya sohasidagi ohirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 12 yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi kitobxonlik madaniyatining jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni va rolini yana bir yangi bosqichga ko'tardi. Bugun ba'zi yoshlarimizning "ommaviy madaniyat" ta'sirida ma'naviy dunyoqarashi tobora tubanlashib borayotir. Ho'sh, unga qarshi kurashda qanday chora-tadbirlarni ko'rish lozim, degan savol tug'iladi. Buning echimini topish uchun, fikrimizcha, ta'lim-tarbiya tizimiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni hisobga olish kerak. Ular orasida bizningcha eng muhim ahamiyat kasb etadiganlari qatoriga quyidagilar kiradi:—mafkuraviy ishlarni mustaqillikni mustahkamlash, mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirib, yorug' va erkin hayot sari olg'a yurishga yo'naltirish;—yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va halq farovonligi kabi yuksak tushunchalar bilan birga milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik kabi tamoyillarning ma'no-mohiyatini ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarining markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish;—yoshlarni ona -Vatanga muhabbat, boy tarihimizga, otabobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish;—ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga hurmat-ehtirom tuyg'usini bolalik paytidan boshlab shakllantirish;—yurtdoshlarimiz, ayniqsa yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shafqatsiz o'yinlari to'g'risida har taraflama va haqiqiy tasavvurlarni shakllantirish kabilardir. Halqimiz, birinchi galda,

yoshlarni erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zlaydigan mafkuraviy-g'oyaviy hurujlardan himoya qilish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Soib RAUPOV, Buxoro davlat universitetining Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrası mudiri.

3-mavzu: O'quv me'yoriy hujjatlarning mazmuni va mohiyati.

Reja:

3. Davlat ta'lim standartlari. Klassifikator. O'quv rejalari.
4. Fan dasturlari, buyruqlari, yo'riqnomalar va boshqa me'yoriy hujjatlarning mazmuni va mohiyati.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi PQ-4796-son "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT STANDARTI

Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar

O'z DSt 3556:2021

Kirish

Mazkur davlat standarti O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek YUNESKO (UNESCO) tomonidan joriy qilingan "Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi" (TXSK 2011) va "TXSK: Ta'lim va kasbiy tayyorlash sohalari"ga (TXSK-S 2013) muvofiq ishlab chiqilgan.

1. Umumiy qoidalar

1. "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar" (bundan buyon matnda Davlat ta'lim standartlari deb yuritiladi):

kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'limning mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablarni;

ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli bilim darajasi hamda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy malakaviy talablarni;

o'quv yuklamasining hajmini;

ta'lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda mexanizmini belgilaydi.

2. Davlat ta'lim standartlari o'quv jarayonini, ta'lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o'quv qo'llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli hujjatlarni (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o'quv rejalari, o'quv dasturlari va boshqalar) ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

3. Davlat ta'lim standartlari oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashda idoraviy bo'ysunuv va mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining davlat ta'lim standartlari asosida kadrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun majburiydir.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari mustaqil ishlab chiqilgan va litsenziyada ko'rsatilgan o'quv dasturlari asosida ta'lim faoliyatini amalga oshirishlari mumkin.

2. Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga havolalar

O'z DSt 1.0:1998 O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Asosiy qoidalar;

O'z DSt 1.8:2009 O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Tavsiyanomalar. Asosiy qoidalar;

O'z DSt 1.9:1995 O'zbekiston Respublikasining standartlashtirish davlat tizimi. Tarmoq standartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi.

3. Atamalar va ta'riflar

Mazkur davlat standartida quyidagi atamalar qo'llaniladi:

oliy ta'lim — uzluksiz ta'limning oliy ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi ikki bosqichdan iborat (bakalavriat va magistratura) mustaqil turi;

bakalavriat — oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir;

magistratura — tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir;

oliy ma'lumot darajasi — shaxs tomonidan oliy ta'limning muayyan o'quv rejalari va o'quv dasturlarini mazkur ma'lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda o'zlashtirishi natijasi;

oliy ma'lumot haqida davlat hujjati (diplom) — akkreditatsiyadan o'tgan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta'limning o'quv rejalari va o'quv dasturlarini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi;

oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori — oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta'limi yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxati;

malaka talablari — oliy ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar;

o'qitishning me'yoriy muddati — ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv rejalari va o'quv dasturlarini o'zlashtirilishi uchun belgilangan muddat;

o'quv fanlari bloki — o'quv rejalarda belgilangan fanlar majmualari, qoida tariqasida "majburiy fanlar" bloki va "tanlov fanlari" blokiga ajratiladi;

o'quv reja — oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta'lim davrining to'liq muddati uchun belgilaydigan hujjat;

o'quv yuklama — o'quv dasturlarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan akademik soatlar hajmi;

o'quv fani — ta'lim jarayonida muayyan ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan tegishli ilmiy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy sohalaridan saralab olingan bilim va ko'nikmalar tizimi;

o'quv yili — oliy ta'lim muassasasida bir ta'lim kursini yakunlashga mo'ljallangan o'quv faoliyati davri. O'quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2021/2022 o'quv yili;

o'quv semestri — oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi. Ayrim hollarda o'quv semestri o'quv yilining uchdan bir qismini tashkil etishi mumkin;

o'quv dasturi — ta'lim mazmunini belgilovchi o'quv fanining asosiy mavzulari, mazmuni, o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan hujjat;

malaka amaliyoti — o'quv jarayonining nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikma hosil qilish, o'quv rejalari va o'quv dasturlarning ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan bir qismi;

yakuniy davlat attestatsiyasi — bakalavr yoki magistr akademik darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartib asosida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim o'quv reja va o'quv dasturlarining o'zlashtirish darajasi hamda sifatini baholash jarayoni;

o'qitish sifatini nazorat qilish — ta'lim oluvchining bilim saviyasini tekshirish va uning o'quv dasturini o'zlashtirish darajasini aniqlash;

ta'lim sifatini nazorat qilish — o'qitish mazmuni va natijalarining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish;

oliy ta'lim muassasasi attestatsiyasi — davlat ta'lim standartlariga muvofiq oliy ta'lim muassasasi faoliyatini baholash va kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli;

oliy ta'lim muassasasi akkreditatsiyasi — oliy ta'lim muassasasi faoliyati darajasini davlat ta'lim standartlarining mezon va talablariga javob berishi hamda bitiruvchilar oliy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni berish huquqining davlat tomonidan e'tirof etilishi;

tajriba orttirish (ishlab chiqarishda, ilmiy-tadqiqot muassasasida, xorijda tajriba orttirish) — magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va o'quv dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrnlarni eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, mudofaa, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash va boshqa tarmoqlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot olib borishi.

4. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari o'quv rejalari va o'quv dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

4.1. Bakalavriat

Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim bilan uzviylik va uzluksizligi ta'minlangan holda, oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv rejalar tarkibiga o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki va tanlab o'zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki kiradi.

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda tegishli sohalarning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq o'quv rejalaridagi bloklar tarkibi o'zgartirilishi mumkin.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalari va o'quv dasturlarini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilar auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda o'quv fanlari bo'yicha mustaqil mashg'ulotlarni bajarishi va mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ta'lim jarayoni o'quv rejalariga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanadi.

O'quv rejalar va o'quv dasturlar kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqiladi. Ayrim (zarur) hollarda o'quv rejalar va o'quv dasturlar reyting (baholash) tizimi asosida ishlab chiqilishi mumkin.

4.1.1. O'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar:

majburiy fanlar bloki fanlarni chuqur o'zlashtirilishini taqozo etadi va ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatini boyitish, ta'lim yo'nalishi va sohaga oid zarur fundamental bilimlar, kasbiy ko'nikma, uquv va kompetensiyalarni shakllantirishi, bitiruvchiga tanlangan yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish hamda muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga zamin yaratishi lozim.

tanlov fanlari bloki bakalavriat yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengayishini ta'minlashi, ta'lim trayektoriyalariga muvofiq kasbiy bilim va malakalarni o'zlashtirishga imkon yaratishi lozim.

4.1.2. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari malaka amaliyotlariga qo'yiladigan umumiy talablar.

Ta'lim oluvchilar kasbiy ko'nikmalarni mukammal egallashi uchun o'quv rejalar va muayyan fanlarning o'quv dasturlarida o'quv (tanishuv), ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) va bitiruv oldi malaka amaliyotlari nazarda tutilishi shart.

Amaliyotlar bakalavriat ta'lim jarayonining majburiy qismi bo'lib, talabalarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Bakalavrlar tayyorlashda quyidagi malaka amaliyotlari o'tkaziladi:

o'quv (tanishuv) amaliyoti — iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

ishlab chiqarish amaliyoti — umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti — ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko‘nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma‘lumot to‘plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot — kasb ta‘limi yo‘nalishlari uchun qo‘llaniladi va pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

Ta‘lim yo‘nalishlarining o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq malaka amaliyotlarining boshqa turlari ham qo‘llanilishi mumkin.

Har bir amaliyot turi o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va real sektorning tegishli ilg‘or korxona, tashkilot va muassasalari, xorijiy va qo‘shma korxonalar, ilmiy tashkilotlar, ta‘lim, tibbiyot, madaniyat va boshqa muassasalarida, dala sharoitlarida, maxsus tajriba (poligon) obyektlarida va boshqalarda o‘tkaziladi.

Amaliyotlarni tashkil qilish, o‘tkazish va talabalarni baholash mezonlarini belgilash oliy ta‘lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

4.2. Magistratura

Magistratura mutaxassisliklarining o‘quv rejaları va o‘quv dasturlari mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang‘ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo‘yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni nazarda tutgan holda shakllantiriladi.

Oliy ta‘lim magistratura mutaxassisliklarining o‘quv rejaları va o‘quv dasturlari bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarining o‘quv rejaları va o‘quv dasturlari bilan uzviylik va uzluksizligini ta‘minlagan holda oliy ta‘limning davlat ta‘lim standartlari, magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi. O‘quv rejalar tarkibiga o‘zlashtirilishi majburiy bo‘lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki, tanlab o‘zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki va ilmiy faoliyat bloki kiradi.

Ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari hamda tegishli sohalarning o‘ziga xos xususiyatlariga muvofiq o‘quv rejalaridagi bloklar tarkibi o‘zgartirilishi mumkin.

Magistratura mutaxassisliklarining o‘quv rejaları va o‘quv dasturlarini o‘zlashtirishda ta‘lim oluvchilar auditoriya mashg‘ulotlari bilan bir qatorda o‘quv fanlari bo‘yicha mustaqil mashg‘ulotlarni bajarishi va mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Magistratura mutaxassisliklarining o‘quv jarayoni o‘quv rejalariga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi (magistrlik dissertatsiyasining himoyasi) bilan tugallanadi.

4.2.1. O‘quv rejaning o‘quv fanlari bloklari mazmuniga qo‘yiladigan minimal talablar:

majburiy fanlar bloki ilmiy tadqiqot metodologiyasi, ilmiy izlanish va tahlil, empirik va nazariy tadqiqot usullari, maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi, pedagogik texnologiyalar, ta‘limning zamonaviy usullari, mutaxassislikka doir dolzarb va chuqur ilmiy, metodologik, ilmiy-texnik, texnologik bilim, uquv, ko‘nikma va kompetensiyalarni ta‘lim oluvchilarda shakllantirishi hamda muayyan doktorantura mutaxassisligi bo‘yicha kelgusida ta‘limni davom ettirishga zamin yaratishi lozim.

tanlov fanlari bloki mutaxassislik bo'yicha ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda ilmiy, pedagogik va kasbiy kompetensiyalarini kengayishini ta'minlashi, ta'lim trayektoriyalariga muvofiq magistr darajasidagi kasbiy bilim va malakalarni o'zlashtirishga imkon yaratishi lozim.

ilmiy faoliyat bloki ilmiy-tadqiqotlar nazariyasi va amaliyoti o'zlashtirilishini, ta'lim oluvchilar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida muayyan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

Bunda:

ilmiy-tadqiqot amaliyoti ta'lim oluvchilar mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko'nikmalarini hosil qilishi, ilmiy-tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalarini tahlil qilish va aks ettirish, zamonaviy axborot bazalarini qo'llash, ilmiy maqolalar va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashga doir bilim, uquv va ko'nikmalarni shakllantirishi lozim;

ilmiy-pedagogik amaliyoti zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o'quv-tarbiya ishlarining interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko'nikmalarini shakllantirishi, o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta'minlashni tashkil etishga doir kompetensiya va ko'nikmalarni hosil qilishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot amaliyoti taqozo etganda yakka tartibda ilmiy izlanish va tajriba-sinovlarni o'tkazish maqsadida tajriba orttirish jarayoni tashkil etiladi. Bunda tajriba orttirish jarayoniga yo'llangan ta'lim oluvchi o'quv jarayoni jadvalini yakka tartibdagi ish rejasi asosida bajarishi ko'zda tutiladi.

tajriba orttirish ta'lim oluvchilarning ilmiy-tadqiqot olib borishi, nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirish, muayyan soha va tarmoqdagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishishi, amaliy kasbiy va ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini shakllanishi, kasbga samarali moslashuvini ta'minlashi lozim.

4.2.2. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv rejalar ta'lim davrining to'liq me'yoriy muddati uchun (birinchi kursdan yakuniy kursgacha) ishlab chiqiladi va bu davrda ularga o'zgartirish kiritish, ularni bekor qilish, o'rniga boshqa o'quv reja ishlab chiqib tatbiq etishga yo'l qo'yilmaydi.

5. Bitiruvchilarning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablarining asosiy qoidalari

5.1. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan talablar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablarida bayon etiladi.

"Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi" (TXSK 2011)ga muvofiq O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida bakalavriat 6-malaka darajasiga, magistratura 7-malaka darajasiga mansubdir.

Bakalavrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil samarali mehnat faoliyatini yuritishini ta'minlashi hamda tegishli mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirish imkonini berishi lozim.

Magistrning tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari mutaxassislik bo'yicha magistr akademik darajali shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbga doir boshqaruv faoliyati bilan samarali shug'ullanishini ta'minlashi, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'limda (tayanch doktorantura, mustaqil izlanuvchi) tahsil olish imkonini berishi lozim.

5.2. Bakalavr va magistrlarni tayyorlash oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturi asosida kunduzgi, kechki (smenali), sirtqi (maxsus sirtqi) va zarur hollarda masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Ta'lim jarayoni kredit-modul tizimi asosida amalga oshiriladi. Ayrim (zarur) hollarda ta'lim jarayoni reyting (baholash) tizimi asosida amalga oshirilishi mumkin.

O'quv dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan bakalavriat ta'lim oluvchilariga "bakalavr" akademik darajasi, magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan magistratura ta'lim oluvchilariga "magistr" akademik darajasi hamda oliy ma'lumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjatlar beriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlar ("Double degree") asosida ham amalga oshiriladi. Bunda ta'lim jarayoni davlat ta'lim standartlariga tayangan holda mahalliy yoki mahalliy va xorijiy oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tuzilgan kelishuv (shartnoma)da belgilangan talablar asosida tuziladigan hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv reja va o'quv dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5.3. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining ta'limni davom ettirish imkoniyatlari:

bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining bitiruvchilari magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'qishni davom ettirish huquqiga ega. Muayyan bakalavriat yo'nalishlari uchun o'qishni davom ettirish bo'yicha magistratura mutaxassisliklarining ro'yxatini oliy ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi belgilaydi;

magistratura mutaxassisliklarining bitiruvchilari tayanch doktorantura, doktorantura yoki mustaqil izlanuvchilik institutlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini belgilangan tartibda amalga oshirishi mumkin.

6. O'quv yuklamasining hajmi

6.1. Bakalavriat

Barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining hajmi bir o'quv yili uchun 60 kredit, bir semestr uchun 30 kredit qilib belgilanadi. 1 kredit 30 akademik soat o'quv yuklamasiga tengdir.

Reyting (baholash) tizimi asosida ta'lim jarayonini amalga oshirayotgan oliy ta'lim muassasalari uchun barcha turdagi auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv ishlarini o'z ichiga olgan o'quv yuklamasining eng yuqori hajmi haftasiga 54 akademik soat qilib belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralgan holda (kunduzgi) o'qish shakli uchun auditoriya mashg'ulotlarining hajmi haftasiga:

kredit-modul tizimi asosida ta'lim jarayoni amalga oshirilayotganda 22 — 32 akademik soat oraligida;

reyting (baholash) tizimi asosida ta'lim jarayoni amalga oshirilayotganda 22 — 36 akademik soat oraligida belgilanadi.

Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda (kechki) o'qish shakli uchun bir haftada odatda besh kun, auditoriya mashg'ulotlarining eng yuqori hajmi haftasiga 20 soat qilib belgilanadi.

4-mavzu: 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari.

Reja:

2. Ta'lim sohasidagi islohotlar. Huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida barcha sohalardagi kabi maktabgacha ta'lim tizimida ham «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» talablaridan kelib chiqqan holda bolalarga huquqiy ta'lim-tarbiya berish masalalarini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining «Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdan himoyalash to'g'risida»gi Qonunlari

Bugun Yangi O'zbekiston «Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat» degan muhim g'oya negizida barpo etilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev belgilab bergan bu ulug'vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

Xususan, «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyili asosida aholi farovonligini yanada yuksaltirish, iqtisod tarmoqlarini transformatsiya qilish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasidagi islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish maqsadida Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasi ishlab chiqilib, 2021-yil 31-dekabrdan boshlab, 2022–2026.strategy.uz, jamoatchilik.uz va regulation.gov.uz elektron platformalari orqali keng jamoatchilik o'rtasida muhokama uchun joylashtirildi. Shu tariqa yurtimiz aholisi uchun o'z takliflarini bildirish imkoniyati yaratildi. Hujjat loyihasi muhokamasi 2022-yilning 15-yanvar kuniga qadar davom etdi.

Ta'kidlash joizki, Taraqqiyot strategiyasi loyihasi xalqimizning yuksak ishonch va e'tirofiga sazovor bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning saylovoldi dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida bayon qilingan maqsad va vazifalar asosida ishlab chiqildi. Undan tashqari, ushbu hujjat loyihasida keng jamoatchilik, yuzdan ortiq vazirlik, idora, tashkilot va hokimliklar tomonidan kelib tushgan takliflar ham o'z aksini topdi.

Davlat rahbari ta'kidlaganidek, «bu muhim konseptual hujjatda islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida «Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari» degan tamoyil asosiy g'oya va bosh

mezon sifatida kun tartibiga qo'yildi».

Taraqqiyot strategiyasi loyihasida mamlakatni rivojlantirishning:

1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

2. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.

3. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash.

4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish.

5. Taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish.

6. Umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish.

7. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish kabi 7 ta ustuvor yo'nalishi doirasida 94 ta maqsadga erishish nazarda tutildi.

5-mavzu: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya», «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi qonun.

Reja:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya" va boshqa qonunlarning mazmun-mohiyatlari.
2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ««Ilk qadam »» dasturi doirasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish. Oila kodeksi

Bola huquqlari to'g'risida konvensiya — bolalar huquqi to'g'risidagi xalqaro huquq normalari kuchiga ega bo'lgan hamda kelajakka qaratilgan eng to'la va birinchi hujjat. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20 noyabrda bir ovozdan qabul qilingan. Konvensiya 1959-yilda qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasi qoidalarini rivojlantiradi. Deklaratsiya "Insoniyat o'zida mavjud bo'lgan eng yaxshi narsalarning hammasini bolalarga berishga majbur" deb e'lon qilgan edi. Konvensiya esa ushbu Deklaratsiya va boshqa xalqaro hujjatlardagi bolalar huquqlari to'g'risidagi qonunlarni o'zida mujassamlashtirgan. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya t. k. dunyoning barcha mintaqalaridagi xalqlar uchun teng ahamiyatga ega, asosiy maqsadi bolalar manfaatlarini mumkin qadar

himoya qilishdan iborat. U muqaddima, 3 qism, 54 moddadan iborat. Konvensiyaga asosan agar milliy qonunlarda balogʻat yoshi birmuncha erta belgilangan boʻlmasa, 18 yoshga toʻlmagan har qanday shaxs bola hisoblanadi. Bola huquqlari toʻgʻrisida konvensiya t. k. insonning fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquklari yigʻindisidan iborat. U bolalar oʻzining axloqiy, aqliy va ruhiy qobiliyatlarini erkin rivojlantirishi uchun boshqa narsalardan tashqari sogʻligʻi va atrof muhitning xavfsizligi, tibbiy yordamga ega boʻlish va ovqatlanish, kiyim-kechak, turarjoy xususidagi minimal normalar bilan taʼminlanishi zarurligini talab etadi. Konvensiyaga kura, bola oʻzining kamol topishida oʻzi faol ishtirok etish, oʻz fikrini bayon qilish huquqiga ega, bu esa uning hayotiga oid masalalarni hal etishda hisobga olinishini taʼminlaydi. Konvensiya bolaning yashash va sogʻlom rivojlanish huquqiga, farzandlikga olish bilan bogʻlits huquqqa, noraso bolalar va qochoq bolalar, shuningdek huquqbuzarlik sodir etgan bolalarning huquqlariga oid qoidalarni oʻz ichiga oladi, bolalarga gʻamxoʻrlik qilish va ularni himoya qilishda oila va otaonaning birinchi darajali roli, bolalarga yordam koʻrsatish borasidagi majburiyatini tan oladi. Bolalarni kamsitmaslik — Konvensiyaning muhim tamoyillaridan hisoblanadi. Bolalar irqi, tanasining rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa eʼtiqodi, millim, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati, sogʻligʻining ahvoli otaonasi yoki qonuniy vasiysi yoxud qandaydir boshqa holatlardan qati nazar, bironbir kamsitishlarsiz oʻz huquqlaridan foydalanishi kerak. Bola huquqlari toʻgʻrisida konvensiya t. k. 1990-yil 2-sentabrda kuchga kirgan. Unga Oʻzbekiston Respublikasi 1992-yil 9 dekabrda qoʻshilgan. Konvensiyani ratifikatsiya qilgan yoki unga qoʻshilgan davlatlar uni bajarish yuzasidan tadbirlar boʻyicha Bola huquqlari qoʻmitasiga muntazam ravishda milliy maʼruzalar yuborib turadi. Oʻzbekiston Respublikasida ushbu Konvensiyani bajarish boʻyicha birinchi milliy maʼruza 1997-yilda tayyorlandi.

6-mavzu: Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdagi himoya qilish toʻgʻrisidagi qonun.

Reja:

1. Bolalarni ularning salomatligiga zarar keltiruvchi axborotdagi himoya qilish toʻgʻrisidagi qonunning mohiyati.

“Bolalarni ularning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonunning 1 moddasida “Ushbu Qonunning maqsadi bolalarni ularning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat” deya qayd etilgan.

Qonunning 4-moddasida asosiy tushunchalar keltirilgan boʻlib, ularning ayrimlari quyidagicha:

- bolalar - oʻn sakkiz yoshga toʻlmagan (voyaga yetmagan) shaxslar;
- bolalarning sogʻligʻi - bolalarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan sogʻlomlik holati;
- bolalar sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborot - bolalar oʻrtasida tarqatilishi ushbu Qonunga muvofiq taqiqlangan yoki cheklangan axborot mahsuloti.

Umuman olganda ushbu qonunda bolalarning sogʻligʻiga axborot orqali yetishi

mumkin bo'lgan zararlarning oldini olish maqsad qilingan. Shuningdek, bolalar ongiga g'ayriqonuniy axborot-ruhiy ta'sir ko'rsatilishining, ularga hiyla ishlatilishining, bolalarni g'ayriijtimoiy harakatlarga undovchi axborot mahsuloti tarqatilishining oldini olish, ushbu sohadagi huquqbuzarliklarni profilaktika qilish nazarda tutiladi.

Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni amalga oshiruvchi organlar va tashkilotlar tizimiga Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi va voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) idoralararo komissiyalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, ta'lim muassasalari, davlat sog'liqni saqlash tizimini boshqarish organlari.

Shuningdek, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi ushbu masalada maxsus vakolatli davlat organidir.

Bundan tashqari, Ommaviy axborot vositalari bolalarning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotlar haqida materiallar tayyorlash hamda aholining axborotga oid va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarni yoritishi qonunda ko'rsatilgan. Qonunning 3-bobi 16-moddasida Bolalarning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotni tasniflash hamda axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi keltirilgan. Shuningdek, 17-moddada Axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi keltirishi ham ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra yetti yoshga to'lmagan bolalar uchun «0+», yetti yoshga to'lgan bolalar uchun «7+», o'n ikki yoshga to'lgan bolalar uchun «12+», o'n olti yoshga to'lgan bolalar uchun «16+», bolalar uchun taqiqlangan axborot mahsuloti «18+» yozuvini aks ettirishi kerak.

Qonunning 5-bobida Axborot mahsulotining ekspertizasi va uning huquqiy oqibatlarini keltirilgan. Shuningdek, 23-moddada Nizolarni hal etish tartibi, 24-moddada Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik aks etgan.

Qonunnig so'nggi 27-moddasida Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran olti oy o'tgach kuchga kirishi qayd etilgan.

Qonunning to'liq matni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy saytida tanishishingiz mumkin.

7-mavzu: Ta'lim tizimida defektologik xizmatni tashkil etishning huquqiy – me'yoriy asoslar.

Reja:

1. Ta'lim tizimida defektologik xizmatni tashkil etishning huquqiy – me'yoriy asoslarining mazmun va mohiyati.

Defektologiya (lot. defectus -nuqson va ...logiya) — jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalar rivojlanishining psixofizik xususiyatlarini o'rganish, ularga maxsus ta'lim-tarbiya berish, undagi nuqsonlarni yo'qota bilish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan. Ko'r va ko'zi ojiz, kar va qulog'i og'ir, aqli zaif, tayanch-harakat appa-ratida nuqsoni bor, nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar Defektologiya fani ob'yek-tidir. Shunga ko'ra Defektologiya 4 alohida sohaga bo'linadi: surdopedagogika (kar va

qulog'i og'ir bolalarni o'qitish, tarbiyalash usullarini o'rganadi), tiflopedagogika (ko'r va ko'zi ojiz bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalarini tadqiq etadi), oligofrenopedagogika (akli zaif bolalarni o'qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini ishlab chiqadi), logopediya (nutq kamchiliklari bo'lgan bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadi). Dastlab surdopedagogika va tiflopedagogika paydo bo'lgan (1770-yil karlar uchun Ispaniyada, 1784-yil ko'rlar uchun Parijda maxsus muassasa ochilgan). Keyinchalik logopediya va oligofrenopedagogikaga asos solingan. Nuqsonli va psixofizik kamchiligi bor bolalarning ruhiy qonuniyatlarini o'rganuvchi maxsus psixologiya, shuningdek, ta'limtarbiya berish, nuqsonlarni tuzatish, tiklash vositalarini ishlab chiquvchi surdotexnika va tiflotexnika ham Defektologiyaga kiradi. Defektologiyaga anatomiya, fiziologiya, patofiziologiya, nevrologiya, nevropatologiya, eshitish, ko'rish va nutq pa-tologiyasi, maktab gigiyenasi, umumiy va pedagogik psixologiya, pedagogika, tilshunoslik, bolalar psixologiyasi va b. fanlar bilan uzviy bog'langan. Dnefektologiyaga ing asosiy vazifasi nuqsonli bolalarni aniklash, tashxis usullarini ishlab chiqish, ular uchun maxsus va mujassamlashtirilgan ta'limtarbiyani tashkil etish, aqliy va jismoniy kamchiliklarni yo'qotish vositalarini izlab topish, amalda qo'llash, ularni hayotga tayyorlash, ijtimoiy foydali insonlar qilib yetishtirishdan iborat. O'lkamizning buyuk alloma, shoir va mutafakkirlari, xususan Ibn Sino, Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Navoiy, Amir Temur va b. D.ni izchil va atroflicha muayyan yo'nalishda o'rganmagan bo'lsalar ham, o'z asarlarida defektologik holatlarning aks etishi, namoyon bo'lishi, rivojlanishi, o'zgarishlari to'g'risida qimmatli fikrlar bildirishgan. O'zbekistonda Defektologiyaganing ilmiy-nazariy, metodik va amaliy tadqiqrtlari bilan G. Sh. Aytmetova, Ye. D. Gordiyenko, L. R. Mo'minova, R. Shomaxmudova, G'. Shoumarov va b. shugullangan. Jismoniy va ruhiy nuqsonli bolalarni jamiyatga foydali kishilar qilib tarbiyalash uchun O'zbekistonda maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari, maxsus maktablar, maxsus internat maktablar mavjud. Toshkent pedagogika universitetinnng pedagogika va defektologiya fakultetida maxsus maktab va muassasalar uchun defektolog kadrlar tayyorlanadi (1967-yildan).

Bugungi kunda ta'limni tashkiliy-huquqiy ta'minlash "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, Davlat standartlari, Ta'lim vazirligining me'yoriy hujjatlari orqali amalga oshirilmoqda. Ta'limni sifatli tashkil etishda asosiy o'rinni Davlat ta'lim standartlari egallaydi. Ta'lim oluvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va ma'naviy sifatlarning eng quyi miqdori ilmiy asoslarda belgilab berilgan rasmiy pedagogik hujjat – davlat ta'lim standarti hisoblanadi. Unda ta'lim mazmuni shakllari vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilangan bo'lib, ta'lim mazmunining o'zagi hisoblanadi. Standart vositasida, mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli ta'lim muassasalarida (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. DTS o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar o'quv rejasi va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Umuman olganda, standart - bu ta'lim muassasalari o'zlariga zarur bo'lgan jamoatchilik e'tirofiga ega bo'lish, ta'lim sifati va kasbiy mahoratining ma'lum bir standarti yoki modeliga javob berish uchun amalga oshirishga harakat qiladigan umume'tirof etilgan me'yordir. Standartlar

norasmiy yoki rasmiy bo'lishi mumkin. Norasmiy standartlar umumiy ijtimoiy va psixologik munosabatlar, ijtimoiy xulq-atvor va faoliyatning tabiiy amal qiladigan normasi sifatida amalga oshiriladi. Ammo norasmiy me'yorlarga qat'iy amal qilish juda sust bo'ladi va ko'p xollarda ta'lim jarayonini boshqarishda samara beravermaydi. Shuning uchun ham rasmiy standartlar, ya'ni tegishli hujjatlarda - ta'lim to'g'risidagi qonunda, Ta'lim vazirligi qarorlarida yoki maxsus hujjatda mustahkamlangan normalar mavjud bo'lib, ular "Davlat ta'lim standarti" deb nomlanadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni bilan bir qatorda ta'lim standarti asosiy meyoriy hujjat hisoblanadi. «Standart» ingliz tilidan tarjima qilinganda «meyor», «namuna», «andoza», «model» ma'nolarini anglatadi. Standart yordamida, respublika miqyosidagi turli ta'lim muassasalarida ta'limning barqarorlik darajasini ta'minlashga erishiladi, o'quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi. Davlat standarti moslashuvchan cheklovchi bo'lib, u o'qitish hajmi, tuzilishi, mazmuni va shakli bo'yicha aniq belgilangan va tasdiqlangan majburiy talablarga ega. Standart mutaxassisning ixtisosligi va malakasini, to'liq o'quv dasturi bo'yicha o'qish muddatini, asosiy o'quv tsikllarini farqlashni belgilaydi. Gumanitar, tabiiy fanlar, umumiy kasbiy, maxsus va ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik, tsikllarning hajm nisbati, dastlabki to'rtta davr uchun majburiy fanlar to'plami, amaliyot, bayramlar va nazorat tadbirlariga ajratilgan o'quv vaqtining miqdori kabilar shular jumlasidandir. Bunday standartlar o'quvchilarga beriladigan ta'lim mazmunining majburiy minimumini hamda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar majmuasini belgilab beradi. Ta'lim mazmunining majburiy minimumi o'quv dasturlari va darsliklarda to'liq o'z ifodasini topishi shart. Bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga ko'ra, o'quvchi muayyan bosqichda egallashi shart bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarining minimal miqdori belgilanadi. E.M.Korotkov fikriga ko'ra, ta'limning sifati – bu mutaxassisning kasbiy faoliyatni iqtisodiyotning hozirgi talablariga muvofiq samarali amalga oshirishga qodirligini belgilovchi professional ong tavsiflari majmuidir. R.I.Nurimbetovning fikricha oliy ta'limning sifati (natija sifatidagi) oliy ta'limning rang-barang ehtiyojlar, maqsadlar, talablar va me'yorlarga muvofiqligidir. Tadqiqotchilarning fikricha, standart – bu turli muassasalarning o'quv dasturlarini minimal talab qilinadigan sifat mezonlariga muvofiq muvofiqlashtirish va juftlashtirish imkoniyati, inson egallashi mumkin bo'lgan yetarli ta'lim sifatining kafolatidir. Standart - bu muayyan hodisaning etaloni, namunasi, modeli, meyorlari, qoidalari, talablarini belgilovchi meyoriy hujjatdir. Hozirgi davrda talabalarning o'qishini bir joydan boshqa bir joyga ko'chirishi yoki vaqtincha to'xtatib qo'yishi kabi holatlar kuzatiladi. Mutaxassisliklar, davrlar va tayyorgarlik darajalariga umumiy talablar bo'lmasa, bu mutlaqo imkonsiz bo'lib qoladi. Insonning ta'lim olish huquqi cheklangan bo'ladi. Binobarin, standartlar insonning nafaqat ta'lim sifatiga, balki ta'lim olishining individual strategiyasiga bo'lgan huquqlarini ham himoya qiladi. Bugungi kunda standartlar ta'lim sifatini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vositasi hisoblanadi. Standartda belgilangan talablarga muvofiq, ta'lim muassasasi faoliyati attestatsiya va akkreditatsiya shaklida nazorat qilinadi. Bu talablar ta'lim muassasasi faoliyatini baholash mezonlari hisoblanadi. Ular asosida ta'lim dasturlarini qiyosiy

tahlil qilish va ta'limni rivojlantirish tajribasini o'rganish amalga oshiriladi. Standart ixtisosliklarning o'rni va rolini, ularning sonini cheklamagan holda belgilaydi va ularni umumiy va xususiy, barqaror va dinamik, istiqbolli va o'ziga xoslik tamoyillariga muvofiq mutaxassislikka kiritadi. Standart ta'limni rivojlantirishning umumiy strategiyasini amalga oshirishga imkon beradi, go'yoki u ta'lim jarayoni sifatini iqtisodiyot va jamiyatni, davlat va shaxsni rivojlantirish maqsadi bilan bog'laydi.

GLOSSARIY

Amaliyotda (praktikada) qo'llash - hayotda bir necha bor qo'llangan o'zining ijobiy hosilasini bergan, ishonchli muammolar yechimi bilan solishtirib, xulosa qilish so'ng tafakkur saviyasiga tayanib yagona echimini tanlash va undan amaliyotda foydalanishdir.

Anglash - biror bir g'oyani (fikrni) tub mazmuniga tushunib yetish.

Anomal bolalarni tarbiyalash — korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Anomaliya (yunoncha — anomal) — me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'g'ri rivojlanish.

Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Axloq - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulqatvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloq (lotincha «moralis» — xulq-atvor ma'nosini bildiradi) — ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.

Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy istiqloq g'oyasining o'quvchilar ongida aks etishidir.

Axloqiy tarbiya - muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Baho — ta'lim oluvchilarga ularning ta'lim olishi, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondoshishini rag'batlantirish maqsadida ta'lik ko'rsatish vositasi.

Baholash -ko'nikma va malakalarni o'quvchilarning turidagi ko'rsatilgan e'talon (ko'rsatkich, qolip, o'lchagich)lar bilan solishtirish.

Bashoratlash - bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

Bilim — shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui;

Bilim olish — idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

Bilish - Ob'ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni.

Boshqarish ma'lum bir obyektga tashkiliy, rejali, tizimli ta'sir ko'rsatish demakdir.

Dars - aniq maqsadni ko'zlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchi, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotlardir. Dars - o'z oldiga qo'yilgan aniq maqsad va tugal mazmundan iborat.

Darslik – muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba.

Darsning maqsadi o'qituvchining rejalashtirgan aniq bir mavzusini o'quvchilarga bildirishi va o'quvchilar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirib ko'rish hamda yangi mav- zuga zamin yaratish.

Darsning mazmuni - uni o'qituvchi tomonidan rejalashtirilgan tugal ma'noga ega matn tashkil etadi. Uni o'quvchilar ongiga singdirish jarayonida manba, xulosa va hikoyalardan foydalanadi.

Dastur – bajariladigan ish yoki biror faoliyat rejasi bo'lib, uning yordamida ta'lim oluvchilarga ta'lim – tarbiya berishda o'quv rejasi va dasturlarini og'ishmay amalga oshirilishida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Davlat ta'lim standarti – 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o'quv fani bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablar.

Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

Demonstratsiya metodi - kinoapparat, televizor eshittirishlardan foydalanib, turli tasvirlarni namoyish qilish.

Didaktik tashxis maqsadi – o'quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Diniy dunyoqarash mifologiya (afsona) negizida shakllangan va rivojlangan, voqelikning kelib chiqishi, rivojlanishi, istiqbolini xayoliy obrazlar, tasavurlar va tushunchalarda aks ettiruvchi dunyoqarashdir.

Dogmatik o'qitish – bu jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, u o'rta asrlarda keng tarqalgan.

Dunyoqarash kishilarda olam haqida yaxlit umumlashtirilgan bilimlar, g'oyalar turkumini hosil qiladigan, ulami muayyan ijtimoiy guruhlar, sinflar, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, davlatlar maqsadidan kelib chiqib baholaydigan va shunga qarab hayotdagi o'z o'mini, amaliy faoliyat yo'nalishlarini, maqsadlarini aniqlab olishga imkoniyat beradigan ko'p qirrali va sarmazmun tushunchadir.

Falsafiy dunyoqarash - bu olam haqidagi yaxlit va tizimlash-tirilgan bilimlar yig'indisidir.

Fan – yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi;

Fanning ob'ekti - shu fan tadqiq etadigan voqe'lik qismi ya'ni, o'rganish sathi, maydoni hisoblanadi.

Fanning predmeti- ob'ektdagi bevosita o'rganiladigan aniq soha bo'lib, u o'z xususiyatlari, sifatleri va jihatlariga ega.

Faoliyat - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi.

Faollik – tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi.

Fazilat - alohida shaxs, el, elat, xalq ulusga taalluqli bo'lgan ijobiy axloqiy sifat majmuyi.

Fikr - inson faoliyati uning o'zligini kuch - qudratini o'zagini tashkil qiluvchi ma'naviy-insoniy sifatdir.

Fuqarolik – huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy etuklik asosida muayyan davlatga mansublik.

Fuqarolik tarbiyasi – fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoiy fuqarolar etib tarbiyalashdan iborat.

Guruh – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa.

Hisobga olish — bu o'qitishning muayyan bir davrida o'quvchilar va o'qituvchi faoliyatini umumlashtirib xulosalash.

Huquqiy faoliyat - huquqiy me'yorlar, qonunlar talablariga nisbatan ongli yondashish, ularga qat'iy va og'ishmay amal qilish, qonunlarni hurmat qilish, ularni shaxs erkini himoya qilish kafolati sifatida e'tirof etish, huquqiy munosabatlar jarayonidagi faol ishtirokni tashkil etishga yo'naltirilgan amaliy xatti-harakatlar majmui.

Huquqiy madaniyat – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichi.

Huquqiy ong - muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy ta'lim - o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risidagi tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni

shakllantirish jarayoni.

Huquqiy tarbiya - shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, unda ijobiy huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Idrok – aniq maqsadga yo'naltirilgan anglash jarayoni.

Idrok- borliqni odam ongiga aks ettirish.

Ijtimoiy rehabilitatsiya (yunoncha "rehabilitas" — layoqati, qobiliyatini tiklash) tibbiy-pedagogik mazmunida anomal bolaning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayoti va mehnatiga jalb etishni anglatadi.

Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar - o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlar, e'tiqod hamda dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg'usi va irodasigata'sirko'rsatish usullari.

Ijtimoiylashuv – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

Illyustratsiya metodi - bilimlarni ogzaki bayon kila turib, rasmlar, chizmalar, jadvallar doskadagi yozuvlarga bolalar diqqatini tortish.,

Individ (lotincha "individuum" bo'linmas, yagona, alohida degan ma'nolarni anglatadi) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik - shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

Innovatsion ta'lim – bu bo'lajak mutaxassislarni joylarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u avval olgan bilimlar asosida ta'limnitakomillashtirish va samarali yangicha yondashuv qilishdan iborat.

Interaktiv -so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib «Inter» - o'zaro, «act» - harakat, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi(talaba)ning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati.

Iqtisodiy ta'lim - o'quvchilarga xo'jalik yuritish tizimi (oilalar byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Iqtisodiy tarbiya - o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oilalar byudjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

Ishlab chiqarish – kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilaydigan asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnikaviy jihatdan ta'minlash jarayonining faol ishtirokchisi.

Izohlash — tarbiyalanuvchiga hissiy-og'zaki ta'sir etish usuli. Izohlashning hikoya va tushuntirishdan farqlanadigan muhim belgisi muayyan guruh yoki alohida shaxsga yo'naltirilganligidir.

Jamoa – maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

Jamoa-insonparvrlilik va javobgarlik ma'suliyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadigan munosabatlar xamda xamkorlikdagi ijtimoiy ijobiy faoliyatiga asoslangan, kishilarning tashkil etilgan umumiyliigi, jamoasidir.

Jamoaning negizi – umuiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishag taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a'zolari.

Jazolash tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Joriy nazorat o 'qituvchi tomonidan o 'quvchilarning har bir o 'quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o'rganilgan mavzularni o 'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tekshirishni o'z ichiga oladi.

Ko'nikma — olingan bilimlarga asoslanib qo'yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig'indisi;

Ko'rgazmali metod - ko'rgazmalilik didaktikada eng asosiy printsiip bo'lib, uning yordamida ko'ruv o'quvi va tafakkur o'zaro uyg'unlashtiriladi. Ko'rgazmali metodlarning quyidagicha turlari mavjud.

Kompensatsiya (yunoncha "compensation" — o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayanadi.

Korreksion (maxsus) pedagogika— rivojlanishda jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda

Korreksion pedagogikaning asosiv maqsadi — belgilangan (normal) va (mavjud kamchilik) faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korreksion-pedagogik faoliyat-yaxlit ta'lim jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik choratadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Korreksiya (yunoncha "correctii" — tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi

Korreksiya (yunoncha tuzatish) bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

Ma'naviyat (arabcha "ma'naviyat" — ma'nolar majmui) - mohiyatiga ko'ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g'oyalar majmui.

Ma'rifat — shaxs ongiga ilmiy bilim, axloq qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy me'yorlarni singdirish, ta'lim -tarbiyani takomillashtirish, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish, ularni targ'ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimi.

Madaniyat - jamiyat va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy yutuqlar majmuasi.

Ma'fura (arabcha <<ma'fura>> - nuqtayi nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmuyi) - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmuyi.

Malaka — ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi;

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Mazmun (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Mehnat tarbiyasi - shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni; ijtimoiy arbiyaning tarkibiy qismi.

Menejment (yoki boshqarish) mavjud minimal imkonivntlnrdan maksimal natialarga erishish maqsadida muavvan xodim voki guruhga t a 'sir etish. ular bilan hamkorlik qilish iaravonidir.

Metod - yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi.

Metod- so'zining yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi. Falsafa lug'atida ushbu tushuncha umumiy tarzda «maqsadga erishish usullari» deya sharhlangan.

Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi.

Metodika (fan sifatida)– xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Mifologik (yunoncha - mifos-naql, rivoyat, logos-tushuncha, ta'lim ot) dunyoqarasp-ijtimoiy taraqqiyotning eng boshJang'ich davriga xos bo'lgan xalq og'zaki ijodi-naql va afsonalarda gavda- lantirilgan ijtimoiy ongning asosiy shaklidir.

Milliy ong - bevosita har bir millat yoki elatning uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati, boshqa xalqlarning o'zaro ta'siri tu- fayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, siyosiy- ijtimoiy va mada- niy-ma'naviy sohalarda faollik darajasi.

Muammoli izlanish metodi - Muammoli izlanish metodi tipiga o'quvchilar tafakkuriga, binobarin, ularning ijodiy faoliyatiga yo'nalgan ta'lim metodlaridir. Bu metodlar asosida o'quv - tarbiya ishlari tashkil etilganda o'qituchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri, faolligi ko'zda tutiladi (muammoli hikoya, muammoli lektsiya)

Munozara (tarbiya metodi sifatida) - tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

Mustaqil ishlash metodi. Mustakil ishlar ta'limning turli zvenolari, tsikllarida, darsning barcha etaplarida o'tkaziladigan, o'qituchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari, rahbarligida bajariladigan intellektual va amaliy topshiriklardir.

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta 'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi.

O'quv dasturi – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtning mavzularni o'rganilishi bo'yicha taqsimlanishi, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

O'quv fani – ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi manba.

O'quv qo'llanmasi – 1) ma'lum o'quv fanlari bo'yicha metodik materiallar, tushuntirishlar, tavsiyalarni yorituvchi hamda o'qituvchi yoki o'quvchilar uchun mo'ljallangan manba; 2) muayyan fan bo'yicha tayyorlangan hamda metodik jihatidan o'quv-tarbiyaviy jarayonda bevosita foydalanish imkonini beruvchi qo'shimcha o'quv materiallari.

O'quv rejasi – ta'lim muassasida o'qitiladigan o'quv fanlarining tartibi, ularning o'quv yili bo'yicha taqsimlanishi, har bir o'quv faniga ajratiladigan haftalik va yillik o'quv soatlari, shuningdek, o'quv yili tuzilishini belgilovchi me'yoriy hujjat.

O'z-o'zini baholash mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish o'z shaxsi, mavjud fazilatlarini, hatti harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatلامي boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli. O'z -o'zini tahlil (nazorat) qilish uchun o'quvchi o'zining yurishturishi, intizomi, ijobiy fazilatlarining ortib borishi va aksincha, salbiy odatlarining kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O'z-o'zini tarbiyalash metodlari o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilishlari, turli o'quvchilar organlari faoliyatida faol ishtirok etishlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqelarini oshirish maqsadida qo'llaniluvchi usullardir. O'z-o'zini tarbiyalash o'quvchilarning o'zini o'zi idora qilish va o'quvchilarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni ta'minlash, ularning ijtimoiy mavqeini oshirishning ta'sirchan vositasidir.

O'qitish metodlari ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta'lim oluvchilar qanday ish harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi.

O'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari – bu mutaxassislar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va predmetdagi tegishli mavzular bo'yicha dars jarayonini takomillashtirishga imkon beruvchi intellektuallashtirilgan dasturlar va uni amaliyotga joriy etishga sharoit yaratuvchi dasturiy – texnik vositalardir.

O'qitishning asosiy vositalari – bu asosiy o'quv mazmuniga ega bo'lgan rejalar, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalaridir.

O'qitishning qo'shimcha vositalari – bu ta'lim oluvchilardagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi masalalar, mashqlar to'plami, ma'lumotnomalar, tarqatma materiallar, ko'rsatmali va ko'rgazmali vositalar, disketlar, EHM va boshqalardir.

O'zlashtirish –ta'lim jarayonida ustuvor o'rin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

O'z-o'zini qayta tarbiyalash – shaxsning o'zidagi salbiy odatlar, xarakteridagi zararli sifatlarni yo'qotish, ularni bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyati jarayoni.

O'z-o'zini tahlil (nazorat) qilish - o'z shaxsi, mavjud fazilatlarini, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O'z-o'zini tarbiyalash 1) shaxsga xos bo'lgan madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga qaratilgan izchil va ongli faoliyati; 2) shaxsning o'z jismoniy, ruhiy va axloqiy sifatlarini tinmay amalga oshirish.

Odob - har bir insonning o'zi bir inson yoki jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishidir.

Og'zaki bayon metodi - Hikoya, tasvir, suhbat, leksiya ta'lim ining bilimlarni ogzaki bayon qilish metodlari sanaladi. Bu metodlar evristik suhbatni hisobga olmaganda, asosan o'quvchilarning hotirasiga mo'ljallab tashkil qiladi. Kurilishi jihatidan ularning tarkibi bir hil: o'qituchi tushuntiradi, bolalar tinglaydi.

Oligofreniya — bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oraliq nazorat — bu o'quvchilar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo'limlarining o'zlashtirilganini tekshirish.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari – shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob'ektiv va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullari.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning o'ziga xosligi: tarbiya ob'ekti bir vaqtning o'zida tarbiya sub'ekti ham hisoblanadi.

Pedagogik jarayonning rivojlanish dinamikasi uning ichki harakati, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar xarakteriga, o'zaro ta'sir kuchiga bog'liq.

Pedagogik talab turli xatti-harakatlarni bajarish hamda faoliyatda ishtirok etish jarayonida o'quvchi tomonidan amal qilinishi zarur bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari.

Pedagogik tizim - tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'zaro tashkiliy hamkorlikda faoliyat ko'rsatuvchi barcha ko'rinishdagi maktabgacha tarbiya, o'rta umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus o'quv yurtlari, oliy o'quv yurtlari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalarining o'zaro uzviylikdagi tizimi.

Pedagogika (yunoncha «paidagogike» bo'lib, «paidagogos» - bola, etaklayman) – ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan.

Pedagogika o'zining ob'ektini – rivojlanayotgan, doimiy yuksalish sharoitidagi insonda anglaydi. Bu inson doimiy ravishda tabiat hamda jamiyat qonuniyatlariga bo'ysunib, ular bilan uyg'unlikda faoliyat ko'rsatadi.

pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirish.

Predmet – bu tadqiqotchi (sub'ekt) tomonidan mazkur ob'ektda qo'yilgan vazifani o'rganish sohasi hisoblanadi.

Rag'batlantirish tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usulidir.

Reyting (baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) - muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi.

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

Shaxsni ijtimoiylashtirish - uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayoni.

Shkalalash - aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Shu nuqtai nazardan, **pedagogika fanining obyekt**- pedagogik jarayonda kechadigan tarbiyalash, ta'lim berish, rivojlantirish asosida shakllanadigan **inson** hisoblanadi.

Sinf - yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lgan o'quvchilar guruhi tushuniladi.

Ta'lim muassasasining ustavi ta'lim muassasasi faoliyatiga rahbarlik va boshqarish tizimini aniqlovchi hujjatdir.

Ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya.

Ta'lim mazmuni – davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati.

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) – ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi.

Ta'lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta'lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta'lim — o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon;

Ta'lim jarayoni — o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon;

Ta'lim mazmuni — davlat ta'lim standartlari asosida belgilab berilgan hamda ma'lum sharoitda muayyan fanlar bo'yicha o'zlashtirilishi nazarda tutilgan ilmiy bilimlar mohiyati;

Ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) — ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha; o'quv jarayonining oqibati; belgilangan maqsadni amalga oshirish darajasi;

Ta'lim vositalari - ta'lim samaradorligini ta'minlovchi obektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, dioproektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, komputer va boshqalar) va subektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar;

Ta'lim kontsepsiyalari (lotin tilidan «conceptio» –tizim) – ta'lim -tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yahlit qarashlar tizimi; uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida ta'lim muassasalari faoliyati yo'nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

Ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) — ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi etakchi g'oya;

Ta'lim mazmuni — shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, xulqi, ijtimoiy hayot ta mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati;

Ta'lim menejeri – ta'lim muassasasi faoliyatini zamonaviy menejment qonuniyatlariga muvofiq boshqaruvchi mutahassis.

Ta'lim metodlari — ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi usullar majmui;

Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish -pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilishga aytiladi.

Ta'lim shakli – ta'lim jarayonining tashkiliy tuzilmasi.

Ta'lim tizimi – davlat siyosatining asosiy tamoyillari asosida yosh avlodga ta'lim -tarbiya berish yo'lida faoliyat yurituvchi barcha turdagi ta'lim muassasalari majmui.

Ta'lim tizimini jamoatchilik asosida boshqarish o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar va jamoatchilik vakillaridan iborat pedagogik Kengashning umumiy o'rta ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyatidir.

Ta'lim va tarbiya mazmuni – shaxsning aqliy va jismoniy qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashi, odobi, hulqi, ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlik darajasini shakllantirish jarayonining mohiyati.

Ta'lim vositalari - O'quv ko'rgazmali vositalar, o'quv texnika vositalari, o'quv axborot texnorlogiyalariga bo'linadi.

Ta'limni boshqarish — ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, boshqarish, nazorat qilish hamda istiqbollarini belgilash;

Ta'limning maqsadi mustaqil jamiyatimizning ravnaqiga nazariy va amaliy hissa qo'sha oladigan "barkamol avlod"ni tarbiyalash.

Ta'limning sinf-dars tizimi - dars shaklida muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv rejasiga muvofiq tuzilgan aniq jadval bo'yicha olib boriladigan ta'lim jarayoni.

Ta'limning vazifasi - yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirish.

Tabiiy ko'rgazma - narsalarning o'z, predmeti, turli jonivorlarning mo'ljallarini ko'rsatish.

Tafakkur - inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmualaridan keragini saralab olish va amaliyotga qo'llash.

Talim vositasi – U yoki bu o'quv faoliyatini amalga ashirish uchun zurrur bo'lgan barcha narsalar.

Tarbiya — muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni - o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Tarbiya mazmuni — shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

Tarbiya metodi (yunoncha "metodos" - yo'l) tarbiya maqsadiga erishishning yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

Tarbiya nazariyasi — pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rganadi.

Tashxis — bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash

Tayzik o'tkazish - uyatga qo'yish, aybdorlik xissi èki ko'ngli chukkanlarning fikri, xissieti, intilishi va moyiligi ularning ongidan xalos qilish.

Tekshirish — nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida aks aloqani ta'minlash, pedagog tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlashdir.

Test — aniq maqsad asosida, muayyan holat darajasini sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarda belgilashga imkon beruvchi sinov vositasi.

Tizim (mustaqil tushuncha sifatida) o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlikdir.

Uzluksiz ta'lim – malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimining tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

Yakuniy nazorat— choraklik, yarim yillik, yillik va davlat attestatsiyasi sinovlari singari turlarga bo‘linadi. Yakuniy nazorat og‘zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o‘tkaziladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-son Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2019 yil 13 maydagi 391-sonli Qarori
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “Maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4312-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

11. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
12. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan darslik.-Toshkent: TDPU – 2013. – 256 b.
13. Ishmuhammedov R, Mirsolieva M, Akramov A. Rahbarning innovatsion faoliyati. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019, 68 bet.
14. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

IV. Internet saytlar

15. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

16. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari
milliy bazasi

17. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet